



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty



2025-yil 29-may
payshanba

№ 22 (4716)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

BIZKIM, SOHIBQIRON TEMUR NASLIMIZ

*Muqaddas Vatanning har qarich yeri,
Azizdir mehnatkash, dono xalqimiz.
Har qanday g'animning quriydi sho'ri,
Bizkim, Sohirqiron Temur naslimiz.*

*Tinchlik posbonlari – o'g'il-qizlaring,
Jon fido qilishga tayyor sen uchun.
Qadim tarix guvoh – yorug' yuzlaring,
Ajdodlar hayoti o'rnak biz uchun.*

*Qalbimiz qo'rida asraymiz seni,
Hech kimga bermaymiz seni, jon Vatan.
Sergakmiz doimo har tun, har kuni,
Biz sen bilan, Vatan, bir jon-u bir tan!*

Nuriddin QAHHOR.



Suratda: Surxondaryo viloyati IIB xodimlari.

HAFTA QAHRAMONI

HAYOT UCHUN KURASH yoxud vaqtida ko'rsatilgan yordam

Osoyishtalik posbonlari kundalik vazifa va burchlarini bajarish chog'ida insonparvarlik, jasorat, fidoyilik kabi olijanob fazilatlar yuzaga chiqadi. Ana shunday voqealardan biri Samarqandda sodir bo'ldi. Viloyat IIB JXX YHXB Axborot xizmati mutaxassisi, katta serjant Xurshid Safarov o'z xizmat burchini ado etish chog'ida hayot uchun hal qiluvchi qaror qabul qilib, bir oilaga quvonch ulashdi.

(Davomi 2-betda).

O'ZBEKISTON–ITALIYA: O'ZARO MUNOSABATLAR

1992-yilda Italiya O'zbekiston mustaqilligini tan olganidan so'ng shakllangan dastlabki diplomatik aloqalardir. 1998-yilda O'zbekistonning Rimdagi elchixonasi ochildi, keyinchalik Milan, Florensiya, Toskana, Liguriya va Umbriyada faxriy konsulliklar tashkil etildi.

* * *

1998-yilda «O'zbekiston-Italiya» do'stlik jamiyati, 2005-yilda do'stlik va hamkorlik assotsiatsiyasi tashkil etildi, 2011-yilda parlamentlararo hamkorlik ish boshladi.

* * *

2023-yili O'zbekiston va Italiya o'rtasida strategik sheriklik munosabatlari to'g'risidagi deklaratsiya imzolandi. Shuningdek, parlamentlararo, hududlararo va vazirliklar darajasidagi hamkorlik mexanizmlari faollashdi.



* * *

2023-yil Florensiyada Mirzo Ulug'bek madaniy-ma'rifiy markazi ochildi, Pesaroda «O'zbekiston madaniyati haftaligi» o'tkazildi. Toshkent–Milan aviaqatnovi yo'lga qo'yildi.

HAFTA QAHRAMONI

HAYOT UCHUN KURASH yoxud vaqtida ko'rsatilgan yordam



(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Sayyor qabulga borayotgan Xurshid Safarov svetoorning qizil chirog'ida to'xtab turganida, orqadagi «Matiz» avtomashinasi old chiroqlarini yoqib, «to'xtang» ishorasini bildirdi. Va chetga o'tib to'xtab, avtomashinadan haydovchi tushdi. Tashvish va iztirob bilan mashinadagi ayol homilador ekanligi, ayni paytda tug'uruq boshlanib, holati og'irlashib borayotganini aytdi.

Xurshid Safarov ikkilanmasdan, xizmat mashinasining sirenasi va yorituvchi chiroqlarini yoqib, shahar markazidagi tug'uruqxona sari yo'l oldi. Haydovchilar esa unga yo'l ochishdi, chunki har soniya g'animat edi. 13 daqiqada homilador ayolni Samarqand shahridagi 1-sonli tug'uruq majmuasiga yetkazdi.

– Samarqand tumani «Qorasuv» mahallasida yashaymiz, – deydi Gulbahor

Boymurodova. – Bir o'g'il, bir qizim bor. Uchinchi farzandimni dunyoga keltirishim bunday esda qolarli bo'ladi, deb o'ylamagandim. Turmush o'rtog'im betob, uyda ikki bolamga qaraydigan hech kim yo'q edi. Shu bois ularni ham yonimga olib yo'lga chiqdim. Bekatda o'tirib «Tez yordam»ga qo'ng'iroq qildim.

«Hozir boradi» deganiga kutib turganimda, bir kishi «Opa qayerga borasiz, o'tiring, olib boraman», dedi. Men pulsiz chiqqanimni aytib, ketavering, dedim. Haydovchi shunchaki xolis yordam berishini aytib, meni tug'uruqxona olib borishini aytdi. Yo'lda ketayotib, juda tirbandlik ko'p bo'lgani uchun sveto-forda to'xtab turgan patrul mashinasi xodimiga vaziyatni tushuntirib, meni ularning avtomashinasiga o'tqazishdi. Tug'uruqxona borganimizdan keyin ham go'dagimni bag'rim-

ga bosgunimgacha o'sha yerda bo'lishdi. Baraka topishsin, yaxshi odamlar bor ekan, ulardan minnatdorman.

Jonkuyar xodimning tezkor yordami, shifokorlarning sa'y-harakati bilan bugun ona hamda kichkinoy sog'-salomat. Shiringina qizaloqqa Tursunoy deb ism qo'yishdi. U yangi hayot boshlagan bir paytda, ularning baxti uchun yordam qo'lini cho'zgan qahramon – katta serjant Xurshid Safarov haqida hurmat va minnatdorlik bilan gapirilmoqda.

Bu voqea hayotimizda har bir insonning burchi nafaqat xizmat, balki insoniylik ekanini yana bir bor namoyon etadi. Xurshid Safarov kabi qahramonlar bor ekan, jamiyatimizda mehr, mas'uliyat, o'zgalarga g'amxo'rlik tuyg'ulari yanada mustahkamlanadi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

AHOLINING TAKLIF-ISTAKLARI ASOSIDA

2025-yil 15-mayda Vazirlar Mahkamasining «Transport vositalaridan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Bunda aholining taklif va istaklari inobatga olindi. Ushbu hujjatdan ko'zlangan maqsad – avtomobil yo'llarida harakatlanish tartibini yanada takomillashtirish, haydovchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda ularni qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf etishdan iborat.

Qarorga muvofiq, joriy yilning 1-iyunidan e'tiboran yo'l chiziqlarini bosib qoidabuzarlik sodir etish holatlarini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari orqali qayd etishga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni haydovchi chiziqni bosib olsa, bu qoidabuzarlik fotoradar yoki videokamera orqali qayd etilmaydi. Demak, unga avtomatik ravishda jarima yozilmaydi. Lekin ushbu qoidabuzarlik YPX xodimi tomonidan aniqlanganda, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, shaharlardagi avtomobil yo'llarida ta'mirlash yoki yo'l chiziqlarini chizish bilan bog'liq ishlarni soat 07:00 dan 21:00 ga qadar amalga oshirishga (dam olish kunlari, shuningdek, kechiktirib bo'lmaydigan alohida holatlar bundan mustasno) yo'l qo'yilmaydi. Bundan buyon ta'mirlash va yo'l chiziqlarini yangilash ishlari kunduzi emas, faqat kechasi yo'llardagi harakat kamaygan vaqtda amalga oshiriladi. Mazkur o'zgarish fuqarolarning kundalik ishga borib-kelishi, farzandini bog'chaga, maktabga olib borishi yoki shifoxonaga yetib olishini osonlashtirish bilan bir qatorda, tirbandliklar yuzaga kelishining oldini oladi.

Qarorga ko'ra, soat 23:00 dan 06:00 ga qadar yo'nalishli transport vositalari uchun alohida ajratilgan tasmasi bor yo'lda boshqa transport vositalarining harakatlanishiga ruxsat beriladi. Ya'ni, avtobuslar harakati uchun ajratilgan «A» harfli tasmalarda boshqa transport vositalarining harakatlanishi hozirda taqiqlangan. Soat 23:00 dan boshlab deyarli barcha avtobus yo'nalishlari o'z

ishini tugatishini hisobga olib hamda qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida boshqa transport vositalarining tungi paytda – soat 6:00 ga qadar ushbu tasmalarda harakatlanishi mumkin bo'ladi va bu qoidabuzarlik hisoblanmaydi.

Amal qilish vaqtini ko'rsatuvchi qo'shimcha axborot belgilariga ega «To'xtash taqiqlangan» va «To'xtab turish taqiqlangan» yo'l belgilari joylashgan hududda ularning amal qilish vaqtidan tashqari paytda transport vositalarining tegishli to'xtashi hamda to'xtab turishiga ruxsat beriladi. Shuningdek, ushbu yo'l belgilarining maqsadga muvofiq o'rnatilganligi nuqtayi nazaridan to'liq qayta ko'rib chiqilishi belgilandi.

Bundan tashqari, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari atrofidagi yo'llarda Yo'l harakati qoidalari bilan belgilangan tezlik chegarasini dam olish kunlari, ta'til davrlari va 19:00 dan 07:00 gacha vaqt oralig'ida ushbu aholi punkti uchun ruxsat etilgan umumiy tezlik chegarasigacha oshirib harakatlanishga ruxsat berildi.

Shuningdek, joriy yil 1-sentabrdan boshlab harakat tezligini nazorat qilishga mo'ljallangan har qanday turdagi statsionar va mobil radarlar joylashgan hududda va ungacha kamida 250 metrdan kam hamda 500 metrdan ko'p bo'lmagan hududda «Radar» yo'l belgisining o'rnatilishi majburiy bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu qaror kelgusida shaharlarda transport oqimini yaxshilash va haydovchilarga yanada qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Shahboz SA'DULLAYEV,
IIV TD Yuridik ta'minlash
boshqarmasi katta yuriskonsulti, kapitan.



MINNATDORLIK

BU UYNING CHIROG'I
O'CHMAYDI

Men tungi smenada ishlayman. Ishdan kech qaytaman. Qaytishda mahalla idorasi oldidan o'taman. Qachon qaramay, profilaktika inspektori, mayor Eldor Erkaboyev xonasining chirog'i yonib turadi. Ajablanaman: «Nahotki, bu yigitning ishi shunchalik ko'p bo'lsa?..»

Bahor kunlari edi. Yarim kechasi qo'shnimiznikida qattiq baqir-chaqir bo'ldi. Tinchib qolar degan umidda, bir muddat indamay yotdim. Qaydam, janjal kuchayaverdi. Ko'chaga chiqib qarasam, darvoza ochiq, odam ko'p. Sal narida «Tez tibbiy yordam» avtomashinasi. Er yoqavayron, kelinning esa sochi to'zigan. Qaynonaning qon bosimi oshgan, shekilli, hamshira ukol qilyapti. Bechora aybsiz er profilaktika inspektoriga nimalarnidir tushuntiryapti. Aybsiz deganim, kelinning fe'lini yaxshi bilaman. Sichqondan fil yasaydiganlar, uzzukun bo'lar-bo'lmasga eriga g'ingshiydiganlar turidan. Eri esa kamtar, mehnatkash yigit. Topish-tutishiyam yomonmas.

Profilaktika inspektori ham bu oilani yaxshi biladi, shekilli, erga qattiq gapirayotgani yo'q. Ayolga esa «Hoy baraka top-gur, birpas jim tursangiz-chi», deyapti. Birozdan so'ng janjalning cho'g'i pasaydi. «Tez tibbiy yordam» avtomashinasi ketdi. Boshqalar ham uyiga ravona bo'ldi. Hovlida xodim, men va «bosh qahramon» – kuyov qoldik.

Shaddod ayol erini chiqib ketishini talab qilar, eriga uyga kirsang o'zimni o'ldiraman, deb baqirar edi. Mayor Eldor Erkaboyev bundaylarning ko'pini ko'rgan. Tortishuv befoydaligini bildi va «Aka, yangam o'ziga kelib olsin», dedi-yu, yigitni ergashtirib ketdi. Keta turib, «Sizam birga bormaysizmi, harholda qo'shningiz» deb iltimos qildi. Uchalamiz har kecha men chirog'i yoniqligiga hayron bo'lib qarab o'tadigan xonaga kirib bordik. Profilaktika inspektori menga qarab ko'zini bir qisdi-da, kayfiyati buzuq qo'shninga hazilomuz gap qotdi:

– Aka, uyidan quvilgan bitta siz emas, mana biz ham bor.

Ikkalamiz qah-qah otib kulvordik. Qo'shnim ham hazilni tushundi. Yuziga kulgi yugurdi. Birpasda xona quvnoq kayfiyatdan «yorishib» ketdi. Gap gapga qovushdi. Mundoq qarasam, burchakda kichikroq monitor-da mahallamiz ko'chalaridan besh-oltitasi bo'lma tasvirda kaftdek namoyon bo'lib turibdi. Shunda hamma ko'chalarga kameralar o'rnatilgani esim-



ga tushdi. Ha-a, hamma gap buyoqda ekan-da. Demak, kimning bolasi bekorchilikdan kechasi daydib yuradi, kim bilan osh-qatiq, barchasidan inspektorimiz boxabar. Tunov kuni Eshmat akaga ham bejiz, «Aka qarang, katta o'g'lingizning oyoq olishi yaxshimas», demagan ekan.

Mayor kompyuterda hujjatlar-ni endi yoza boshlagan edi, telefoni jiringlab qoldi. Mahalla boshidagi do'konlardan biriga o'g'ri tushibdi. U bizga xijolatomuz qaradi-da, qayergadir qo'ng'iroq qildi. So'ng vaqtinchalik uyidan quvilgan qo'shnimni shunday tashlab keta olmasligini aytib, tuman-dagi yirik korxonalardan birining yotoqxonasidan tunash uchun joy so'raganini aytdi. Masala hal bo'ldi, deb, qo'shnimni mashinasiga o'tqazib olib ketdi.

Ko'chaga chiqdim. Soat tungi uchlardan oshgandi. Bexosdan yana o'sha derazaga qaradim. Bu gal chiroq o'chdi, lekin inspektor uyg'oq. U el tinchligi yo'lida xizmatda...

Darvoqe, oradan bir-ikki kun o'tgach, mahalla raisi va faollari bilan birga kelib qo'shnimning oilasini yarashtirib qo'ydi. Men esa mana shu mahallada yashaydigan inson, oddiy bir fuqaro sifatida ushbu xodimning fidoyiligini ko'rdim. Jonkuyarligiga guvoh bo'lgach, rahmat sizga, Eldorjon, dedim.

Narzulla MANSUROV.

Sirdaryo tumani
«Paxtakor» mahallasi.

Qashqadaryo viloyati

PROBATSIIYA XIZMATI

Hozirgi kunda Qarshi tumani IIB JXX Probatsiya guruhida 517 nafar shaxs hisobda bo'lib, ularning 126 nafari axloq tuzatish ishlariga jalb etilgan bo'lsa, 106 nafari ozodlikni cheklash, 69 nafari muayyan huquqdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan. Shu bilan birga, 211 nafari muddatidan oldin shartli hukm qilingan mahkumlar sanaladi.

KASALLIKNI
DAVOLAGANDAN KO'RA...

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik markazi tuman bo'limi hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik samarasi o'laroq, 32 kishi ish bilan ta'minlandi. Ayni paytda muayyan kasbga ega bo'lmagan 18 nafar nazoratdagi shaxs monomarkazda kasbga o'qitilmoqda. Kasbni egalagach, ularning ham bandligi ta'minlanadi.

Albatta, nazoratdagi shaxslar orasida bilib-bilmay yoki ehtiyotsizligi tufayli jinoyat sodir etgan yurtdoshlarimiz ham bor. Belgilangan tartib-qoidaga



rioya etib, mehnatga halol munosabatda bo'lgani uchun ulardan 67 nafari sayyor sud majlisida mud-

datidan ilgari shartli ozod etildi. Va, aksincha, sud tomonidan tayinlangan jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlagani sababli 9 nafar mahkumning jazo turi og'irrog'iga almashtirildi.

Kasallikni davolagandan ko'ra, oldini olgan afzal, deyilar. Probatsiya guruhi nazoratidagi shaxslar uch toifaga, ya'ni tuzalish yo'liga o'tgan, jinoyat sodir qilishga moyil va jinoyat sodir etishga xavfi yuqori toifalariga ajratilgan. Bugungi kunda 26 nafar «qizil», 76 nafar «sariq» toifadagi shaxslarning kundalik va maishiy muammolari o'rganilgan holda, ular bilan muntazam profilaktik ishlar olib borilmoqda.



TEZKOR-PROFILAKTIK TADBIR

HARAKAT XAVFSIZLIGI
UCHUN

Yurtimizda joriy yilning 15-aprel kundan 15-may kuniga qadar o'tkazilgan «Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor-profilaktik tadbirida Toshkent shahar IIBB YHXB tomonidan ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, 117096 ta qoidabuzarlik aniqlanib, qonuniy chora ko'rilgan. Shu-



ningdek, 197 ta holatda giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalari olib yurilgani aniqlangan. Avtotransport vositalarining salon va yukxonalari tekshirilganda, 452 ta inson hayoti uchun xavfli bo'lgan o'tkir tig'li jismlar borligi aniqlangan.

Yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida 8 ta svetofoor obyekti o'rnatildi va 84 donasiga texnik xizmat ko'rsatildi. Bundan tashqari, 601 dona yangi yo'l belgilari o'rnatilib, 44908m² yotiq yo'l chiziqlari chizildi.

Poytaxt yo'llarida tezlik bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida 6 ta foto-video qayd etish texnika vositalari o'rnatildi, yana 3 tasining joylashuv manzili o'zgartirildi.

O'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Призвание сердца

«ПЫЛАЮ, СЛОВНО ПЛАМЯ...»

В мероприятии участвовали сотрудники органов внутренних дел области, учащиеся Хорезмского академического лицея МВД, поклонники поэзии.

Отмечено, что в последние годы в стране особое внимание уделяется развитию книгоиздания, пропаганде чтения, проводятся различные конкурсы.

Руководитель областного отделения Союза писателей Узбекистана Гавхар Ибодуллаева, главный редактор газеты «Хоразм ҳақиқати» Солияжон Рахимбергана, главный редактор журна-

В хокимияте Хорезмской области состоялась презентация сборника стихов «Эҳтиром» курсанта 3 курса Академии МВД, члена общественного фонда «Тўмарис» Скарлетт Ишниязовой.



ла «Тўмарис авлоди» Шаркия Эшжонова, Народная артистка Узбекистана Гулора Рахимова высказались о сборнике и его авторе.

– Перу Скарлетт принадлежит также книга «Я последовательница Зулфияханум», – говорит журналист Шаркия Эшжонова. – В сборнике «Эҳтиром» представлены стихи, посвященные Отчизне, патриотизму, воспета неповторимая красота родного края.

**Худойберган
ЖАББОРОВ,
соб. корр.**

Хорезмская область.

■ Сурхандарьинская область



В области продолжается изучение социальных проблем сотрудников органов внутренних дел с выездом на места.

Особое внимание уделяется вопросам укрепления здоровья, проводится общение с их близкими родственниками.

Главная цель этих мероприятий – создание благоприятных условий для несения службы. Такой подход способствует укреплению морального духа личного состава, повышению профессиональной мотивации.

В ходе выездов сотрудники кадровых служб детально изучают жилищные условия, предоставляют консультации по тем или иным юридическим вопросам.

В центре внимания семьи сотрудников, проходящих службу в отдаленных и приграничных районах. Им оказывается дополнительная поддержка, в том числе в вопросах трудоустройства супругов и организации досуга детей.

Работа в этом направлении будет продолжена. Руководство УВД подчеркивает, что забота о сотрудниках и их семьях – одна из приоритетных задач.

Соб. корр.



■ Джизакская область

УГЛУБЛЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ ОСМОТР

Специалисты подразделений Медицинского управления МВД проводят углубленный медосмотр сотрудников органов внутренних дел, членов их семей, ветеранов сферы.

Врачи эндокринологи, травматологи, гастроэнтерологи, урологи, терапевты, невропатологи и др. дали консультации по ведению здорового образа жизни, ответили на вопросы пациентов.

Осмотрены 694 человека. В 22 случаях определены



Тем, кому необходимо хирургическое вмешательство, выданы направления на операцию в Центральный госпиталь МВД. Подобные медосмотры проводятся во всех регионах страны.

**Алижон
АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.**

первичные заболевания, 155 лицам рекомендовано стационарное, 215 – амбулаторное лечение. Еще 61 – предписано оздоровление в санаториях. Врачи посетили 6 пациентов, ограниченных в движении.




ЮРАК МУДОМ УРИБ ТУРСИН

Бизга жон қадар яқин, юрагимизга она алласи, момоларимизнинг эртаклари билан сингган она тилимизнинг тилсимотлари ҳақида ўйлаганимда кўз олдимга бот-бот қуйидаги воқеа келади. Минг тўққиз юз етмиш тўққизинчи йилнинг сентябрь ойи. Тошкент давлат университети (ҳозирги Ўзбекистон Миллий университети) ўзбек филологияси факультетининг биринчи босқич талабалари кенг, ёруғ дарсхонага жам бўлишган. Улар ғала-ғовур қилиб туришганида, аудиторияга баланд бўйли, кийимига гард юкмаган, юзларидан нур ёғилиб турган домла кириб келди. У филология фанлари доктори, профессор, забардаст тилшунос олим Аюб Фуломов эди.

Домла биринчи маърузасиданоқ истараси иссиқлиги, дарсни қизиқ ўтиши, билимининг чуқур ва кенглиги билан ҳаммани ўзига ром этиб қўйди. Айниқса, фикрини далиллаш учун шеър дostonлардан, насрий асарлардан мисолларни қаторлаштириб ташлаганини кўриб, унинг қувваи ҳофизасига, адабиётни ҳам чуқур билишига тан бердик. Азбаройи қизиқиб кетганимиздан ҳатто оралиқ танаффусга ҳам чиқмасдан, бир ярим соат қандай ўтганини билмай қолдик. Кейинчалик домланинг дарсларида танаффусга чиқмаслик биз



Бурун юздаги бошқа аъзолардан бурунда, яъни олдинда жойлашган-да. Киприк асли кирпик экан-да. Типратиканни ҳам бежиз кирпи дейишмайди. Дудок асли тутоқ экан-да. Ўзаги тут бўлади. Тутиш феъли ҳам шундан ясалади. Ёноқ ёниб т у р а р экан-да, ён томонда экан-да. Қўлни Хоразмда



учун одатга айланди.

Домла дарсларнинг бирида сўзларнинг келиб чиқиши, яъни этимологияси ҳақида шунақанги қизиқарли маълумотлар келтирдиларки, она тилимизнинг мўъжизаларидан ҳайратга тушдик. Ушбу жажжи мақолада домланинг инсон аъзолари номларини англатувчи сўзлар этимологияси тўғрисидаги айрим фикрларини келтириб ўтаман.

– Бош танамизнинг бошида бўлгани учун бош дейилар экан-да. Вужудимиз бошдан бошланар экан-да, – дедилар у киши. – Соч сочилиб турган экан-да. Шунинг учун соч дейилар экан-да. Пешона бошнинг олд қисми экан-да. Форс-тожик тилида «пеш» олд дегани-да. Кўз кўрар экан-да. Шунинг учун кўз дейилади-да.

ал дейди. Олиш учун хизмат қилади-да. Оёқ адоқ шаклидан келиб чиққан. Аъзоларнинг адо бўладиган жой, яъни охири-да. Юрак юриб, уриб туради-да. Бағир деб жигарни айтишади. Чунки жигар инсоннинг бағрида жойлашган-да. Биз яқин инсонимизни жигарим, десак, қозоқлар бавурум дейди. Тирноқ тирнаш вазифасини ҳам бажарган-да...

Домла бошқа аъзолар номларининг ҳам келиб чиқишини изоҳлашда давом этар, биз эса она тилимизнинг мўъжизаларидан огоҳ бўлиб, ҳайратдан қотиб қолган эдик. Агар ўша пайтдаги ҳайратимиз сизга озгина юққан бўлса, демак, бу жажжи мақоладан кўзланган муродим ҳосил бўлибди...

Бобомурод ТОШЕВ.

Инсон, аввало, ўзидан, ўзлигидан келиб чиқиб фикрлайди. Миллатининг юксалиши, тилининг тараққий этиши, санъат ва маданияти тарғиб қилинишини хоҳлайди. Орзуларимиз – Ватан ва унинг камоли билан боғлиқ, юртим шаънини жаҳон минбарларида ҳимоя қиламан, деган улғувор мақсадларда йўлга чиққан ёшларимиз кўп. Афсуски, ана шу некбин орзуларни амалга ошириш мумкин бўлгани ҳолда, кўпчилигимиз бир мақсад йўлида бирлаша олмаётганимиз ҳам аччиқ ҳақиқат.

ОЛДИМИЗДАН ҚАЁТГАН ДАРЁ кадрсиз бўлиб қолмасин



Гап шундаки, она тилимиз равнақи масаласидаги бирлашувларимиз кўнгилдагидек эмас. Ёш авлоднинг она тилига эътибори кам, улар учун чет тилларини ўрганиш муҳим. Миллионлаб ёшлар интернетда, уларнинг контентларида, ёзишмаларида имловий саводхонлик даражасининг пастлиги яққол билиниб қоляпти.

Чет тилларини ўрганишга қизиқишлар эса она тилимизни ўрганиш, асраш масаласини янада четга суриб қўйди. Тили чиқиши биланок, фарзандларимизни рус, инглиз, араб тилларига йўналтиряпмиз. Болам аввал ўз она тилини мукаммал ўргансин, кейин бошқа тилни ўргатишга бераман дейдиганлар, афсуски, камайиб боряпти. Яқин келажакда ёшларимиз адабиётни, бадиий асар тилини ҳис қилмай қўймасмикин, деган хавотирлар бор.

Ахир, ўзингиз ўйланг, она тилида янграган алла бола қалбига инсонийлик, меҳру муҳаббат туйғуларини ҳадя этади. Улуғ алломалар, маънавият аҳли яратган бебаҳо асарлардан тил орқали баҳраманд бўляпмиз.

Яқин танишимнинг фарзанди эндигина икки ёшга тўляпти. Ота-онаси ўзбек бўла туриб, оилада рус тилидан фойдаланишади. «Ўзбек тилини билиши шартмас, катта бўлганда «так и так» ўрганиб олади», дея ўзбекча-русча аралаш сўзлайди замонавий ёш она.

– Оилада инглиз ва рус тилларида сўзлашганимиз учун фарзандимнинг нутқи ривожланиши анча қийин кечди. Лекин аста-аста тушунапти. Қизим 5 ёшга етгунча 5 та тилни мукамал ўргатмоқчимиз...

Албатта, бу каби интилишлар бола шахсининг ривожланиши, ақлий етуқлиги учун муҳим. Лекин инсон қандай қилиб ўз она тилини билмай гапириши мумкин? Бу каби ривожланишлар ёшларнинг ўзбек тилини замонавий

эмас, деган муносабатнинг шаклланишига олиб келяпти.

Тилимиз ғариблашаётганига мисоллар истаганча топилади ва бунга кўникиб ҳам бўлганмиз. Дўконлар, тадбиркорлик субъектларининг инглиз, рус, хитой тилларида номланиши ажаблантирмай қўйди. Бу борада бирор кимни айблаш фикридан йироқман. Бунда ҳаммамизнинг айбимиз бор...

Мамлакатимизда давлат тилини ривожлантириш борасида қатор фармон ва қарорлар имзоланди. Хусусан, 2020 йилда «Ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармонга кўра, МТТларда ўзбек тилидаги гуруҳлар қамровини 2030 йилгача 80 фоизга етказиш, умумтаълим мактабларида она тили фанини ўқитиш соатларини ошириш, олий ўқув юртларида эса ўзбек тили кафедралари сонини кўпайтириш белгиланди. 2019 йилда Вазирлар Маҳкамаси тузилмасида Давлат тилини ривожлантириш департаменти ташкил этилиб, унинг вазифаси давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини назорат қилиш, давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятини мувофиқлаштириш, янги сўз ва атамаларни расмий истеъмолга киритиш белгиланди. Атамалар комиссияси фаолият бошлади.

Ўзбек тилининг луғат бойлигини оширувчи изоҳли луғатлар чоп этиш йўлга қўйилди. Асосий тарғиботчи бўлган телерадиоканаллар бошловчилари учун қайта тайёрлов курслари ташкил этилди. 2030 йилгача хорижий ОТМларда ўзбек тилини ўргатувчи марказлар сонини кўпайтириш мақсад қилинди. Дастурий маҳсулотларнинг ўзбекча иловалари ва электрон луғат, хорижликлар учун ўзбек тилини ўргатувчи дастурлар яратиш борасида амалий ҳаракатлар бошлан-

ди. Ҳокимликлар, давлат муассасаларида давлат тилини ривожлантириш масалалари бўйича раҳбар ўринбосари лавозими жорий этилди. Ёшлар ишлари агентлигининг «Дуэл», «Викистипендия», «1000 китоб» каби лойиҳалари ҳам ўзбек тилини ривожлантириш йўлидаги энг муҳим қадамлардан. Википедияда ўзбек тилидаги мақолалар сони ортди.

Мамлакат миқёсида тилимиз тараққиёти йўлида катта ислохотлар давом этмоқда. Фақат бу ислохотлар моҳиятини жамиятнинг ҳар бир аъзоси тушуниб етиши, жараёнда ўзи ҳам фаол иштирок этиши керак. Кенг қамровли жараёнлар боғчалар, мактаблар, олий ўқув юртлари, ташкилотлар, маҳаллаларга ҳам кириб бориши зарур.

Хорижий тилларни ўргатадиган ўқув марказларида она тили саводхонлигини ўргатиш бўйича ёндашувлар ҳам керак. Чунки бугун билимли ва интилувчан ёшлар аудиториясини айнан мана шундай марказлардан топиш мумкин.

Миллионлаб аудиторияга эга зиёлилар, шоир ва адиблар, ОАВ ходимлари тарғибот масаласига жиддий ёндашмоғи шарт. Сифатли контентлар, видеороликлар орқали масала моҳиятини кенг оммага етказишимиз шарт.

Ўқитувчи ва мураббийлар кўмагидан ҳам унумли фойдалана олишимиз керакки, бугун мактабда таълим олаётган бола қалбига она тилимизга муҳаббат ва уни соф асраш каби улкан мақсадларни сингдиришимиз лозим.

Бир сўз билан айтганда, она тили олдимизда оқаётган улкан дарё. Унинг тошқин мавжлари ҳар бир дилга тоза ва мусаффолик бағишласин. Токи дарё кадрсизланмасин.

Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,
журналист.



ҲАМИША ТЕТИК ВА БАРДАМ

Бу инсонни кўрган одам шу ёшда бунча куч-қувватни қаердан оларкан, деган ўйга боради. Бир қарасангиз, Ички ишлар вазирлиги Фахрийлар кенгашида, бир қарасангиз, Ўзбекистон футбол ассоциациясида ва бошқа жамоат ишларида ҳам фаол. Гап ички ишлар органларида қарийб 43 йил фаолият юритган истеъфодаги полковник Аваз Азизхўжаев ҳақида кетяпти.

Фарғона вилоятида таваллуд топган лавҳамиз қаҳрамони ўрта мактабни тугатиб, бир неча йил Тошкент метрополитенида ишлади. Сўнг отаси Аббос Азизхўжаевнинг изидан бориб, Тошкент юридик институтининг сиртки бўлимида ўқиди. Ички ишлар органларидаги фаолиятини ИИБ Тошкент темир йўл тармоқ ИИБ-да бошлади. Бир неча йил ушбу қайноқ хизмат оғушида бўлган ёш ходим секин-аста хизмат пилла-пояларидан кўтарилиб, масъулиятли вазифаларда хизмат қилди.

Бир муддат ИИБ Жиноят қидирув бош бошқармасида масъул лавозимларда фаолият олиб борган А. Азизхўжаев кейинчалик Транспортдаги ИИБ Тошкент тармоқ бошқармаси бошлиғи ва ИИБ «Динамо» жисмоний тарбия ва спорт жамияти кенгаши раисининг биринчи ўринбосари сифатида ўзини кўрсатди.

2006 йилдан эса Ички ишлар вазирлиги марказий аппаратида масъул лавозимларда ҳамда ИИБ Академияси бошлиғининг референти вазифасида сидқидилдан хизмат қилиб, 2021 йилда иззат-икром билан пенсияга кузатилди.

Юқорида таъкидлаганимиздек, А.Азизхўжаев пенсияга чиқса-да, уйда ўтириб қолмади. Ўзбекистон футбол ассоциациясида фаолиятини давом эттирди. Бир вақтнинг ўзида ИИБ Фахрийлар кенгаши раисининг биринчи ўринбосари сифатида ўзининг кўп йиллик бой тажрибаси ҳамда кўникмаларини ички ишлар органларида фаолият юритаётган ходимлар ва ёшлар билан ўртоқлашиб келмоқда.

Турмуш ўртоғи Дилдор ая билан икки ўғил, икки қизни вояга етказиб, элу юрт учун фойдаси тегадиган етук кадрлар қилиб улғайтиришди.



Яқинда Аваз ака табарруқ 75 баҳорни қарши олди. Шу муносабат билан Ички ишлар вазирлиги томонидан истеъфодаги полковникнинг соҳага қўшган ҳиссаси эътироф этилиб, самимий тилаклар билдирилди. Шунингдек, ЎФА раҳбарияти ҳам у кишининг сўнгги йилларда футболимиз эришган ютуқлардаги ўрнини алоҳида таъкидлаб, «Жисмоний тарбия ва спорт аълоҳиси» кўкрак нишони ҳамда ассоциациянинг

махсус медалини тантанали равишда топширишди.

Биз ҳам кўп йиллар ички ишлар органларида фидойиларча фаолият юритган ва ҳозирда ҳам соҳа ривожини учун бел боғлаб хизмат қилаётган истеъфодаги полковник Аваз Азизхўжаевга узоқ умр ва сиҳат-саломатлик тилаб қоламиз.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент шаҳри.

К
Е
С
Н
А



Жондор тумани ИИБ



2025-yil.

Б
У
Г
У
Н

XIZMATLARDA

DALILLAR TILGA KIRGANDA

Sodir bo'lgan jinoyatni fosh etishda arizasdek tuyulgan narsa ham inkor etib bo'lmay dalil bo'la olishi mumkin. Shunday ekan, bugungi kunda jinoyat turlari murakkablashib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu borada ekspert-kriminalistika xizmati xodimlaridan katta mahorat talab etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi EKG xodimlari boshqa sohaviy xizmat xodimlari bilan hamkorlikda jinoyatning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishda, tergov harakatlari, tezkor-qidiruv tadbirlarida va voqea joyini ko'zdan kechirish, jinoiy ishlarni olib borishda va ularni ochishda mavjud texnik vositalardan unumli foydalanib kelmoqda. Shuningdek, sodir bo'lgan jinoyatlarni fosh etish yuzasidan prokuratura, bojxona, davlat xavfsizlik xizmati xodimlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida guruh xodimlari ko'plab tezkor tadbirlar va tergov harakatlari ishtirok etib, ular bo'yicha 15 ta ekspertiza xulosalari va bitta tadqiqot o'tkazishib, qilmishga qo'l urgan shaxslarga

nisbatan jazo muqarrarlari ta'minlanishiga erishdilar.

Shu yilning aprel oyida Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tomonidan aniqlanib, ro'yxatdan o'tkazilgan holat bo'yicha «Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi» o'tkazildi. Buning natijasida «Miskin-Qo'ng'iro't» poyezd yo'nalishi uchun uch nafar fuqaro nomiga rasmiylashtirilgan biletlar qalbaki ekanligi aniqlanib, jinoyat ishi qo'zg'atildi. Shuningdek, uni tayyorlashda gumondor bo'lganlarning shaxsiy ma'lum bo'ladi.

– Ekspert-kriminalistika xodimlari tomonidan doimiy ravishda navbatchilik qismi tomonidan tushgan chaqiruvga asosan, boshqarma xizmat hududida yuz bergan voqea va hodisalar bo'yicha tergov guruhi tarkibida mutaxassis sifatida o'z vaqtida chiqish ta'minlanib kelinmoqda. Ushbu kunga qadar xodimlarimiz tomonidan 33 marotaba voqea joyiga chiqilib, 18 marotaba ahyoviy dalillar olingan, – deydi Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Rufat O'razov.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ



ҲАҚИҚИЙ БАХТ НАШИДАСИ

Лавҳамиз қаҳрамони болаликдан детектив фильмларни томоша қилавериб, изкуварликка қизиқиб қолди. Ана шу қизиқиш, ҳавас уни Қуролли Кучлар сафида йигитлик бурчини ўтаб қайтгач, 1978 йилда ИИБ Олий милиция мактабига етаклаб келди.

Абдумалик Шокиров афсус танловдан ўта олмади – тўплаган бали камлик қилди. Бахтли тасодифни қарангки, ўша пайти мазкур таълим даргоҳига ИИБ Чимкент ўрта милиция мактаби вакили келиб қолди. Унинг маслаҳати билан ўша билим даргоҳига айнан тезкор қидирув йўналиши бўйича ўқишга кирди.

Бу ерда авваламбор қатъий тартиб-интизомга одатланиб, изкуварлик алифбосини ўрганди. Курсантларни вақти-вақти билан шаҳарда жамоат тартибини сақлаш тадбирларига жалб этишарди. Айниқса, жазони ижро этиш муассасаларидаги амалиёт қизғин кечарди. Шу тариқа икки йил қандай ўтганини билмай қолди.

Ички ишлар органларида хизматни бошлаганида ИИБ ЖИЭБда ўз соҳасининг устаси бўлган полковниклар Мирали Мирпўлатов, Вазген Аванесов, подполковник Насиба Холхўжаевалардан касб сирларини ўзлаштирди. Ўзи тезкор ходим этиб тайинланган жазони ижро этиш муассасасида эса мазкур муассаса бошлиғи, полковник Икром Отабеков унга мураббийлик қилди. Абдумалик Шокиров муассасанинг тезкор қисми бошлиғи этиб тайинлангач эса, бу ерда кечган 11 йиллик фаолияти давомида кўплаб очилмай қолган жиноятларни фош этди. ИИБ Олий милиция мактабини сиртдан тамомлашга ҳам улгурди.

Соҳада анчагина тажриба тўплагач, уни муассасалардан бирига бошлиқнинг тартибот ва тезкор ишлар бўйича ўринбосари, кейинчалик раҳбарлик қилган лавҳамиз қаҳрамони вазифалари кўлами янада кенгайди. Янги лавозимда маҳкумларнинг маиший шароитларини яхшилашга, тарбиявий ишлар таъсирчанлигини оширишга алоҳида эътибор қаратди.

«Тегирмон навбати билан» деб бежиз айтишмайди. Абдума-

лик ака ҳам бир пайтлар устозларидан ўрганганларини, фаолияти давомида тўплаган тажрибасини ёш ходимларга ўргатди. Шогирдларининг аксарияти тизимда турли масъулиятли лавозимларда хизмат қилиб пенсияга чиқишди.

Яқинда уни ўзи бир пайтлар раҳбарлик қилган 23-сон маҳкумлар учун мўлжалланган касалхона шахсий таркиби билан учрашувга таклиф қилишди. У мулоқот олдидан муассасада маҳкумлар ва ходимлар учун яратилган шарт-шароитлар билан танишди. Тадбирда сўз беришганида эса:

– Биз бундай шароитларни орзу қилар эдик. Бунинг қадрига етиб, виждонан хизмат қилинлар. Фидойилигингиз ҳеч қачон беиз кетмайди, албатта пайти келиб, ўз баҳосини топади, – деди.

Шундан буён унинг неварашогирдлари ҳам пайдо бўлишди. Улар вақти-вақти билан истеъфодаги полковник Абдумалик Зокировичга қўнғироқ қилиб, ундан маслаҳат, йўл-йўриқ сўраб туришади.

Йиллар бир-бирини қувиб ўтаверар экан. Мана, 70 ёши ҳам эшик қоқиб турибди. Бу беихтиёр уни сарҳисобга чорлайди. Ортига назар ташлаб, кечирган умридан мамнунлик туяди. Тўғри, ёш ходимлигида кечаси алламаҳал хизматини яқунлаб, поюпиёда муассасадан 14 чақирим узоқда жойлашган қишлоғига қайтганда афсусланган пайтлари бўлган.

Энди эса шу соҳани танлаганига шукур қилади. Боиси фидойилик билан хизмат қилиб, ҳамкасблари ўртасида обрў-эътибор қозонди, раҳбариятнинг назарига тушди. Фарзандларининг ҳаммаси олий маълумотли, уйли-жойли. Фаризот опа билан аҳилиноқликда турмуш кечириб, тўрт азамат ўғилни вояга етказишди. Ҳозир неваралар ҳам бир этак. Ахир, инсон учун бундан ортиқ бахт борми...

Бобомурод ТОШЕВ,
ўз мухбиримиз.

PROFILAKTIKA XIZMATI

SAYTNING SAMARASI
SEZILMOQDA

Oliy ta'lim dargohida ilm olish istagidagi yoshlar bilan ishlashning o'ziga yarasha gashti va mas'uliyati bor. Men faoliyat olib borayotgan Namangan davlat universitetida oliy ta'lim tizimidagi islohotlar mohiyatidan kelib chiqib, o'qitish jarayonini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, ilmiy salohiyatni yuksaltirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlari sifati va samaradorligini yanada oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda universitet talabalari soni 18 491 nafarni tashkil etmoqda. 25 ta kafedrada 613 nafar professor-o'qituvchi faoliyat olib bormoqda.

Universitetda osoyishtalik va jamoat tartibini saqlashda mayorlar Azizbek To'xtaboyev, Zuhra Karimova bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar tashkil etib kelmoqdamiz.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tgan yil yakuni bo'yicha o'tkazilgan profilaktik tadbirlar natijasida talabalar o'rtasidagi jinoyat sodir etish holatlari 4 barobarga kamayishiga erishildi. Professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlar orasida joriy yil

qilib, tazyiq o'tkazilgan. Jabrlanuvchiga himoya orderi berilib, oilasidagilar bilan to'g'ri tushuntirish olib borganimizdan so'ng u yana universitetga qaytdi. Jami 8 nafar qizga himoya orderi berilib, huquqlari himoya qilindi.

Har bir talabaning nima bilan band ekanligi, yurish-turishi doimiy e'tiborimizda. 1720 nafar ijarada yashovchi talabalar ro'y-xati shakllantirilib, ular istiqomat qilayotgan xonadonlarga borib, yashash sharoitlarini o'rgandik.



davomida huquqbuzarlik holatlari sodir etilmagan.

Yaxshi ko'rsatkichlarga erishishimizda Namangan viloyati IIB Kiberxavfsizlik bo'limi xodimlari bilan hamkorlikdagi tadbirlar o'tkazganimiz o'zining ijobiy samarasini berdi. Talabalarning Ichki ishlar vazirligining «cyber 102» saytiga a'zo qilinishi natijasida ham kiberxavfsizlik yo'nalishidagi jinoyatlardan jabrlanib qolish holatlari kamayishiga erishildi.

Talabalar hayotida turli maishiy muammolar ham bo'ladiki, biz bunday paytda to'g'ri chora qo'llab, vaziyatni ijobiy tomonga yo'naltira bilishimiz muhim. Masalan, yaqinda turmushga chiqqan talaba qizga nisbatan turmush o'rtog'i tomonidan darslarga kelmasligini talab

Jinoyat va huquqbuzarlikka moyil 22 nafar talabalar ro'yxati shakllantirilib, yakka tartibda profilaktik ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, korupsiyaning oldini olish va uning kelib chiqish sabablarini o'rganish maqsadida turli tadbirlar tashkil etildi.

Talabalar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida tadbirlar tashkil etilmoqda.

Barcha o'tkazilayotgan tadbirlar universitet hududida jamoat tartibini saqlash, jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadlariga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Dilmurod KARIMOV,
Namangan shahar IIB JXX HPB
profilaktika inspektori, mayor.

TADBIR

XALQ XIZMATIGA SHAYMIZ

Ichki ishlar vazirligi O'quv-dala markazida Malaka oshirish institutining navbatdagi boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik o'quv kursi tinglovchilarining qasamyod qilish va bitiruv tantanali tadbiri bo'lib o'tdi.



Tadbirda so'zga chiqqan institut boshlig'i, polkovnik Olimjon Ahmedov keyingi yillarda mamlakatimizda barcha sohalaridagi yangilanish

va o'zgarishlarga hamohang tarzda ichki ishlar organlari tizimlarida ham bir qator islohotlar amalga oshirilayotganligini ta'kidlab, bundan

ko'zlangan maqsad har qanday tahdid va xatarlarga qarshi kurasha oladigan, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qodir yetuk malakali kadrlar bilan ta'minlash ekanligini aytib o'tdi.

– Yetti yil ilgari Sirdaryo viloyatining Baxt shahrining «Tinchlik» mahalla fuqarolar yig'inida mahalla posboni sifatida faoliyatimni boshlagan edim, – deydi Malaka oshirish instituti tinglovchisi Lazizbek Qosimov. – O'quv jarayonlaridagi nazariy bilimlar bilan bir qatorda, real hayotiy vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar kelgusida xizmat vazifalarimni sifatli va to'liq bajarishimda asqatishiga ishonaman.

Tantanali tadbirda o'quv dasturlari talablarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy

sinov-imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan tinglovchilarga sertifikatlar topshirildi.

Shuningdek, o'quv kursi davomida o'zining kasbiy bilimlarini oshirish, amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish, dunyoqarashini yanada kengaytirishga intilib, yuqori

ko'rsatkichlarga erishgan hamda namunali xulqi uchun bir guruh tinglovchilar faxriy yorliq va tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.



ISHCHI GURUH FAOLIYATIDAN

OLIS HUDUD MUAMMOLARI HAL ETILMOQDA

Turli soha mutasaddilaridan iborat respublika ishchi guruhining navbatdagi sayyor qabuli Zarafshon shahrida tashkil etildi. Olis hududlar aholisining muammolarini o'rganish, ularga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida bo'lib o'tgan mazkur qabulda Zarafshon shahri, Uchquduq va Tomdi tumanlari fuqarolari qatnashdi.

Qabul jarayonida aholining huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarga oid murojaatlari o'rganildi. Jumladan, IIV mas'ullari hamda viloyat IIB boshlig'i tomonidan fuqarolik masalalari, nizoli holatlar, yer va mulkka oid shikoyatlar tinglanib, ayrimlari joyida hal etildi.

Maya Usmonova Zarafshon shahri «Quruvchi» mahallasi-

da istiqomat qiladi. Ayolning bugun 32 yillik orzusi ushaldi – unga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinganligi haqidagi hujjat topshirildi.

– Fuqarolikning yo'qligi mening ayrim huquqlarimni cheklardi. Ammo ko'p millatli Zarafshon xalqining mehmondo'stligi, ochiqko'ngilligi



bizni shu yerda uzoq yillar istiqomat qilishimizga sababchi bo'ldi. Mana, endi men ham O'zbekiston Respublikasi

fuqarosiman, – deydi faxr bilan Maya Usmonova.

Shuningdek, qabul jarayonida 16 yoshga to'lgan

zarafshonlik 7 nafar o'g'il-qizga O'zbekiston Respublikasi shaxs guvohnomasi – ID kartalari topshirildi. Bundan tashqari, sayyor qabul doirasida murojaatchilarning aksar dolzarb ijtimoiy muammolariga joyida yechim topildi, ba'zilariga huquqiy yordam ko'rsatildi.

Bu kabi tadbirlar xalqning davlat organlariga ishonchi ortishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

EKSPERT-KRIMINALISTIKA XIZMATI

XOLISLIKKA UNDAYDI

Podpolkovnik Lutfulla Tolipov xizmat faoliyatini 2012-yilda Yangiyo'l tumani IIB EKBda boshlab, Toshkent viloyati IIBB hamda Bo'ka tumani IIBda ayni yo'nalishda xizmat faoliyatini davom ettirgan. Hozirgi vaqtda Olmaliq shahar IIB EKG katta eksperti sifatida tekshiruvlar-u tahlillarni mohirlik bilan olib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, ekspert-kriminalistika guruhi joriy yilning hozirgi davriga qadar yuzdan ortiq hodisa joyiga chiqqan va tergov-tezkor harakatlarida qatnashgan. Bittadan o'g'irlik va talonchilik jinoyatlari fosh etilgan bo'lsa, boshqa ko'plab holatlar xulosa jarayonida. Lavhamiz qahramoni 2023-yil viloyat bo'yicha «eng yaxshi ekspert-kriminalisti» sifatida e'tirof etilgan.

– Bizning yo'nalishda sinchkovlik juda muhim. Har doim har bir detalga e'tiborli bo'lib, kichik dalillarni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Zero, jinoyat va hodisalar ko'lamini qanday ko'rinishda bo'lmasin, xolislik uchun bular juda muhim, – deydi ekspert.

Lutfulla akaga havas qilib, ikki nafar ukasi ham uning ortidan ergashgan. Biri ichki ishlar organlari kapitani, yana biri Milliy gvardiya tizimida safdor xodim sifatida xizmat qilmoqda. Podpolkovnik L.Tolipov kasbi o'qituvchi bo'lgan turmush o'rtog'i Nihola Tolipova bilan birgalikda ikki nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazishmoqda. Ular yaqinda «Namunali oila» ko'rik-tanlovida Toshkent viloyati miqyosida faxrli uchinchi o'rinni egalashdi.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



■ Республика Каракалпакстан

ГЛАВНОЕ – УВАЖЕНИЕ И ДОВЕРИЕ В СЕМЬЕ

На региональном этапе смотра-конкурса «Образцовая семья», состоявшемся в Каракалпакстане, победу одержала семья старшего инспектора профилактики ОПП СОБ отдела внутренних дел Шуманайского района майора Саламата Баймуратова. В республиканском финале, прошедшем в городе Ташкенте, она отмечена в номинации «Самая активная семья».



Саламат Баймуратов в 2009 году начал службу в органах внутренних дел – в отделе Управления пожарной безопасности МВД Республики Каракалпакстан по Тахиаташскому району. С 2012 года продолжил работу в должности инспектора профилактики в Тахиаташском районном ОВД, а с 2021 года в Шуманайском РОВД.

– В нашей семье было четверо детей. Отец Шаншарбай и мать Маржан с детства прививали нам

честность, трудолюбие, целеустремленность. Всегда поддерживали нас. С ранних лет я увлекался спортом, особенно вольной борьбой, интересовался художественной литературой, – рассказывает он. – В студенческие годы выступал в команде КВН университета «Туран», которая в 2008 году стала победителем республиканского этапа в Ташкенте. Вместе с однокурсниками основал театр-студию «Дембермес-театр». И сегодня

остаюсь верен творчеству – являюсь участником ансамбля «Арал жулдызлары», регулярно принимаю участие в спортивных мероприятиях, проводимых министерством.

Супруга офицера – Айгул Турганбаева, работает воспитателем в детском саду. Вместе воспитывают троих детей – Жулдыз, Айсару и Зайнаб, проявляя заботу и внимание к пожилым родителям, перешагнувшим 80-летний рубеж. Основой крепкой семьи, по словам Саламата, являются взаимоуважение и доверие. Если в семье царит согласие, преодолить любые трудности.

Сельский сход граждан «Мамый», где несет службу майор Баймуратов, уже два года входит в число территорий с благополучной криминогенной обстановкой. Здесь в атмосфере добрососедства проживают представители разных народов – каракалпаки, узбеки, казахи, туркмены, корейцы, всего свыше 2 500 человек. Значимый вклад в обеспечение стабильности и порядка вносит слаженная работа майора С. Баймуратова и председателя схода граждан Талгата Ерназарова.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



Противодействие торговле людьми

МАНИПУЛИРУЯ СУДЬБАМИ

Торговля людьми – преступление, попирающее права человека, лишаящее его чести и достоинства. Уголовный кодекс Узбекистана предусматривает за данное деяние суровое наказание.

Несмотря на строгость закона и усилия правоохранительных органов, факты торговли людьми, к сожалению, продолжают иметь место. Описываемый случай – пример того, как преступники, используя различные уловки и манипуляции, ловко играют на человеческих слабостях, обещая легкие деньги и лучшую жизнь...

В ходе совместного специального мероприятия, проведенного оперативными сотрудниками ГУВД столичной области, СГБ,

УВД Кибрайского района в Ташкентском международном аэропорту задержана гражданка Х. Т., жительница города Ангрен, 1971 года рождения. С целью наживы она обманным путем убедил знакомую З. А., 2003 года рождения, выехать с ней в Санкт-Петербург (Россия), заверив, что за границей «заработок будет хороший». Истинные ее намерения заключались в том, что по прибытии в страну назначения девушка должна была заниматься проституцией.

По имеющимся данным, расходы на поездку покрывала некая «Зуля», проживающая в Санкт-Петербурге. За доставку девушки она обещала Х. Т. щедро заплатить.


Следственным отделом при УВД Кибрайского района возбуждено уголовное дело по части 2 статьи 135 («Торговля людьми») УК. Ведутся следственные действия.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

■ Ферганская область

ОТВЕСТИ ОТ НЕВЕРНОГО ШАГА

Подразделениями Управления пробации областного УВД проводятся целенаправленные профилактические мероприятия.



Отделом пробации города организован прием лиц, находящихся под надзором данной службы. Им разъяснена необходимость соблюдения установленных ограничений и требований.

Изучены условия, в которых трудятся осужденные к исправительным работам, ход их социальной адаптации. Проверено соблюдение предписаний 143 поднадзорными лицами. Выявлено 8 случаев нарушений установленных ограничений, по данным фактам оформлены соответствующие документы.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARS

JADIDLAR JASORATI – IBRAT MAKTABI

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o'lkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. O'z zamonining ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqqan.

Jadidchilikni shakllantirishda ko'plab millat ziyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni o'rtaasrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan. Bu harakat o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra, XIX asr boshlarida mavjud bo'lgan diniy islohotchilikdan farq qiladi. Ogahiy, Nodira, Ahmad Donish, Turdi, Maxmur, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlar mansub bo'lgan avlodning qarashlari asosan ma'rifatparvarlik tamoyiliga tayanar edi. Jadidlar esa na faqat ma'rifat, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o'zgartirish yo'lidani bordilar.

«Tilda, fikrda, ishda birlik» degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idani qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bilishgan. Ular shu yo'lda fidoyilik ko'rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar

ochgan. Jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etib, yoshlarni ilg'or davlatlarga o'qishga yuborganlar. Bir so'z bilan aytganda, ular milliy uyg'onish, milliy taraqqiyot g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishgan.

Jadidlarning eng e'tiborga olgan masalalaridan biri shuki, Turkistonda xotin-qizlarning savodxonlik darajasi juda ham past ekanligi, ular faqatgina otinoyilar o'z uylarida ochgan uy maktablarida o'qib, so'ng ular uy ishlari bilan shug'ullanishi, nari borsa tikish-bichishni o'rganishi, keyin esa jamiyatda qat'iy qonun-qoidaga aylangan erta oila qurish majburiyatini olib, shu bilan bir umr to'rt devor ichida yashashlarini qattiq tanqid qilib, erkak va ayollar teng haququqqa ega ekanliklari, bola tarbiyasi bilan asosan onalar shug'ullanganliklari bois, millat taqdiri uchun ularning bilim saviyasini ko'tarish va yangi maktablar tashkil etishni yoqlab chiqdilar.

Turkiston jadidlari ayollarining bilim olishlari va jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida o'zlariga munosib ish bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyatlar yaratishni o'z oilalaridan boshlaydilar. Jumladan, samarqandlik maktabdori Abduqodir Shakuriy qizlar uchun tashkil etgan yangi usul maktabida xotini Roziyaxonim muallimlik qilgan bo'lsa, Ab-

durauf Fitrat xonadonidagi adabiy va ma'rifiy muhit singlisi Mahbuba Rahim qizining shoira bo'lib yetishishini ta'minlagan. Qo'qonlik jadid Muhammadjon Xoliqiyning singlisi Soliyaxon Abduxoliq qizi esa akasining maktabida muallimlik qilgan.

Turkistonlik ziyoli ayollarining ko'zga ko'ringan yorqin vakillaridan biri, jadid shoira-si Nozimaxonim (1870–1924) bo'lib, o'z davrining madaniyatli, ilg'or qarashli ayoli sanalgan. Nozimaxonim – erkparvarlik g'oyalarining targ'ibotchisi edi. Bu hol uning dastlabki maqola va she'rlaridayoq aniq ko'rinadi. Uning 1904-yilda «Turkiston viloyatining gazetisi»da bosilgan maqolalaridan biri «Insonga qancha erk darkor?» deb nomlangan edi.

So'ng ketma-ket mahalliy matbuot sahifalarida «Xotinlar huquqiga oid», «Ilm va maorif borasida bir-ikki so'z» kabi maqolalari chop etilgan. Maqolalar mazmuni, ruhi bilan Turkistonda ozodlik g'oyalarining yoyilishi, xotin-qizlarning o'rtasida demokratik intilishning kuchayishiga xizmat qilgan. Jadidlar faoliyatida iste'dodli qizlarni xorijda o'qitish bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirildi. Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidova kabi iqtidorli o'zbek qizlari Germaniyaning oliy o'quv yurtlarida tahsil olib qaytganlar.

Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.



Jadidlar maslagining amalga oshishida maktablardan keyingi asosiy o'rinni matbuot egallaydi. «Burung'i o'zbek vaqtli matbuotining tarixi» maqolasida Abdulla Avloniy 1905–1917-yillar davomida o'zbek tilida 23 ta gazeta va 8 ta jurnal chop etilgani haqida ma'lumot beradi. «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Samarqand», «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona» kabi qator gazetalar hamda «Oyina», «Al-isloh» kabi jurnallar shular jumlasidandir. Afsuski, sal o'tmay bu harakat bo'g'ib qo'yildi. Sobiq ittifoq davrida jadidchilik g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan oqlanmadi, jadidchilik adabiyoti taqiqlandi. Garchi 60-yillardan keyin bu harakat namoyandalarning ayrimlari adabiy doiralarda tilga olina boshlagan bo'lsa-da, ularga nisbatan umumiy taqiqlar o'zgarmay qolaverdi. Faqat mustaqillikdan keyingina bu borada tub o'zgarishlar uchun imkoniyat yaratildi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir. Shu bois, xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va

merosini yangicha tafakkur asosida o'rganish hamda targ'ib etishga alohida e'tibor berilmoqda. Yurtimizda ushbu yo'nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilinib, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'onga uchragan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Har yili, 31-avgust sanasi – Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda.


Yurtimizda «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va uning hududiy bo'limlari faoliyat olib bormoqda. Jadidchilik harakati tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar, badiiy asarlar, kinofilmlar ko'plab yaratilmoqda. Ulug' ma'rifatparvarlarimiz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta'lim muassasalari, muzeylar, bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston Oliy sudi tomonidan mustabid tuzum qatag'oniga uchragan ko'plab vatandoshlarimiz nomi oqlangan tarixiy adolatni tiklash yo'lidagi yangi qadam bo'ldi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash kerakki, buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy qarashlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Zero, ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.



Maqolani qoraqalpoq
tilida o'qish uchun
QR-kodni
skaner qiling.



EKOLOGIK MUAMMO — DOLZARB MASALA

Har yili 5-iyun Jahonda atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu sanada barcha ekologlar, atrof-muhit muhofazasi tashkilotlari jahon hamjamiyati e'tiborini ekologik muammolarga jalb qiladi, shuningdek, sohaga siyosiy qiziqishni, ayni yo'nalishdagi tegishli qadamlarni rag'batlantirishni targ'ib etishadi.

Bugungi iqlim o'zgarishlari sharoitida ekologiya va atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazayotgan ekologik xavf hattoki yadro talafoti va terrorizmdan ham dahshatliroq bo'lib, Yer yuzidagi barcha xalqlarni tobora bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Endilikda insonning tabiatga xo'jasizlarcha palapartish munosabati tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur sanani nishonlash doirasida BMT jahon miqyosida dolzarb bo'lgan ekologik muammolarni yechishga dunyo xalqlarini chorlaydi.

Prezidentimiz taklifiga asosan, **2025-yil «Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili»** deb e'lon qilinib, eng muhim vazifalar bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturda «yashil» texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi belgilab berildi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalarida ham atrof-muhit yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik ekanligi, ulardan oqilona foydalanish va ular davlat muhofazasida ekanligi belgilangan.

«Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunning 2-moddasi



talablariga ko'ra, xodimlar fuqarolarning qonuniy manfaatlarini, erkinliklarini ta'minlash bilan bir qatorda, ekologik huquq buzarlarning oldini olish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ham o'z hissasini qo'shadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda qabul qilingan ekologik qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlarning asosiy xususiyati shundaki, ular zamonaviy ekologik talablarni o'zida aks ettirib, fuqarolarning bu boradagi huquqiy ongi,

«O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi»ga 314 turdagi o'simlik turi kiritilgan bo'lib, har yili yovvoyi holda o'sadigan dorivor, oziq-ovqat va texnik o'simliklarning 65 turga yaqini yetishtiriladi. O'zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 706 turi mavjud, umurtqasiz hayvon turlari esa 15 mingdan ortiq. So'nggi o'n yil davomida tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida O'zbekistondagi ko'plab hayvon turlari kuchli antropogen ta'sir ostida qolib, ularning yashash joylari va soni qisqardi, ba'zilari esa butunlay yo'q bo'lib ketish arafasida.

tafakkuri va madaniyatini zamon talabi asosida shakllantirib, atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Bu sohada Prezidentimizning «Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risi-

mamlakatimizda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida keyingi besh yilda 1 mlrd daraxt va buta ko'chatlarining ekilishi shaharlarimizga, mahallalarimizga fayz bag'ishlovchi yashillikka burkangan yangi yashil hududlar barpo etilishi bilan birga, yurtimiz iqlimini mo'tadil saqlashga, pirovardida ona tabiatimizni asrash, aholi salomatligini yaxshilash, xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bunda ichki ishlar organlari xodimlari ham faol ishtirok etayotgani tahsinga sazovor, albatta.

Prezidentimizning «Chang bo'ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, chang bo'ronlariga qarshi kurashish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tiklash, ihota daraxtzorlarini barpo etish orqali chang bo'ronlari sodir bo'lish xavfini kamaytirish hamda ularning salbiy oqibatlarini yumshatish, shuningdek, chang bo'ronlaridan aholini erta ogohlantirish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadida qabul qilinganligi bilan ham o'ta muhimdir. Shuningdek, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olishda ekologik toza transport vositalari miqdorini oshirish, yoqilg'i sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Prezidentimizning «2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash mutasaddi tashkilotlar bilan birga, Ichki ishlar vazirligi va uning barcha xizmatlari faoliyati uchun ham o'ta muhimdir. Zero, aholi va yoshlarimiz o'rtasida «Mening obod yurtim», «Xavfsiz mahalla», «Mening yashil qishlog'im», «Tabiat bolalar nigohida» tanlovlari hamda «Turfa olam» ekologik viktorinasi, «Yoshlar va ekologiya», «Yoshlar va ekologik qonunlar», «Ekologik qonunlarni o'rganamiz», «Yashil makonga hissam», «Tabiat va biz», «Ona tabiatni asraylik» kabi mavzularda suhbat va ma'ruzalar o'tkazishda ichki ishlar organlari xodimlarining o'rni beqiyosdir.

Jumanazar XOLMO'MINOV,
yuridik fanlar doktori, professor,
iste'fodagi podpolkovnik.



da»gi qarori muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur hujjatning amaliyotga tatbiq etilishi mavjud ekologik muammolarni hal etish bilan bir qatorda, mintaqamizdagi ekologik barqarorlikni va ekologik xavfsizlikni huquqiy ta'minlashga yordam berdi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor yanada kuchaydi. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan



Урок духовности и просвещения

Репрессии коснулись всех слоев общества, в том числе цвет национальной интеллигенции – джадидов, чья самоотверженность в борьбе за свободу народа стали примером для многих поколений.

Чтобы в полной мере оценить масштаб трагедии и понять, почему именно джадиды стали одной из главных мишеней режима, необходимо четко представлять, кем они были.

Джадидизм, что в переводе означает «новый метод», был мощным просветительским и реформаторским движением, зародившимся в конце XIX – начале XX века. Его представители были интеллектуалами, мыслителями, политическими деятелями, которые стремились к модернизации общества, подъему уровня образования народа. Их це-

МУЖЕСТВО ДЖАДИДОВ – ШКОЛА ПРИМЕРА

Каждый народ в своей истории переживает как славные, так и трагические моменты. Для Узбекистана такой трагической страницей стала первая половина XX века – установленный тоталитарный строй принес неисчислимые страдания, унеся жизни тысяч невинных людей.

- Экономические реформы. Понимая важность экономического развития для процветания общества, джадиды ратовали за внедрение новых методов ведения хозяйства, развитие промышленности и торговли.

- Политическая активность. Джадиды выступали за демократические преобразования и нацио-

национальное самоопределение. Они верили, что только просвещенное общество может стать подлинно свободным. Деятельность джадидов положила путь для формирования современной узбекской государственности. По сути, они были предвестниками национальной независимости.

свободы и справедливости. Скончался в тюрьме в 1944 году.

- Мунавваркори Абдурашид-хонов – видный общественный деятель, редактор первых узбекских газет и журналов. Он был одним из реформаторов образования в Туркестане. Расстрелян в 1931 году.

- Исхокхон Ибрат – языковед, историк, поэт, публицист, издатель. Умер в 1937 году в тюрьме, куда был заключен по обвинению в «антисоветской пропаганде».

И список этот далеко не полный...

УРОКИ ИСТОРИИ

В современном Узбекистане осуществляется масштабная работа по увековечению памяти предков, проявивших мужество в борьбе за свободу народа, ставших жертвами политических репрессий. Это важнейший урок для будущих поколений.

Созданы музеи памяти жертв репрессий, которые не только собирают и хранят артефакты той эпохи, но и ведут активную просветительскую работу. Проводятся научные исследования, публикуются книги и архивные материалы, раскрывающие

правду о тех страшных событиях. Открываются новые памятники и мемориалы, посвященные погибшим.

Вся эта работа направлена на то, чтобы подобное никогда не повторилось. Память о мужестве джадидов, всех жертв репрессий – постоянное напоминание о непреходящей ценности свободы и справедливости.

Мужество джадидов, стремление к просвещению и прогрессу, их жертвенность во имя будущего Родины – вдохновляющий пример. Увековечение памяти жертв политических репрессий способствует воспитанию общества, которое ценит человеческое достоинство. Память о прошлом – маяк для будущего.

Азиза БОХОДИРОВА,
майор.



лю было преодоление отсталости и укрепление национальной идентичности через глубокие реформы в сферах культуры, экономики и политики.

КЛЮЧЕВЫЕ ИДЕИ

- Образование – путь к прогрессу. Джадиды стремились распространять светское образование. Они активно выступали за создание новых школ с современными учебными программами, отвергая устаревшие методы преподавания.

- Развитие языка и культуры. Они внесли колоссальный вклад в развитие узбекского языка, создавали новые прозаические, поэтические, драматургические, публицистические произведения. При этом призывали бережно относиться к многовековому духовному наследию.

ЖЕРТВЫ РЕПРЕССИЙ

«Контрреволюционеры», «националисты», «антисоветские элементы»... Такие ярлыки использовались для дискредитации и подавления инакомыслия, оправдания преследования людей, чьи взгляды не соответствовали официальной идеологии. Только в период с 1937 по 1953 годы в жерновах репрессий оказались более 100 тысяч соот-

Поведем имена просветителей-джадидов, чьи жизни были оборваны режимом.

- Абдулла Кадыри – выдающийся писатель, один из основоположников узбекского романа. Его произведения, такие как «Минувшие дни» и «Скорпион из алтаря», стали классикой национальной литературы. Расстрелян в 1938 году.

- Абдурауф Фитрат – мыслитель, писатель, драматург, поэт, историк. Являлся одним из лидеров джадидского движения. Репрессирован и расстрелян в 1938 году.

- Чулпан – крупнейший представитель узбекской литературы начала XX века, поэт, прозаик, драматург и публицист. Расстрелян в 1938 году.

- Усман Насыр – талантливый поэт, драматург, переводчик. Его творчество было пронизано идеями



AYOL VA JAMIYAT

URINGAN ISH O'RINSIZ QOLMAS

Bandixon tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, leytenant So'g'diyona Usmonova tomonidan mahallalarda olib borilayotgan tizimli va maqsadli profilaktik tadbirlar o'z samarasini berib, xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilik darajasi 2024-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygani kuzatilmoqda. Xususan, tovlamachilik, firibgarlik, tan jarohati yetkazish kabi jinoyatlar bo'yicha ko'rsatkichlar pasaygani targ'ibot ishlarining natijadorligini ko'rsatadi.



– Xotin-qizlar bilan individual tarzda ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, – deydi leytenant So'g'diyona Usmonova. – Jumladan,

profilaktika hisobida turuvchi 45 nafar hamda probatsiya ro'yxatidagi 8 nafar xotin-qiz bilan yakka tartibda suhbatlar tashkil etildi, ularning ijtimo

moiy va shaxsiy muammolari o'rganilib, tegishli choralar ko'rildi. 3 nafar ayol tuman hokimligi bilan hamkorlikda uy-joy bilan ta'minlandi. Yana 15 nafar xotin-qiz ip yigirish korxonasi hamda tikuvchilik sexlariga ishga joylashtirildi.

2025-yilning o'tgan 5 oyi davomida IIBga murojaat qilgan hamda tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollar holati o'rganilib, ulardan 80 nafariga himoya orderi berildi. Shu tariqa ayollar xavfsizligi ta'minlanib, qayta zo'ravonlik holatlarining oldi olindi.

Shuningdek, ajralish yoqasida turgan, sudga ko'rib chiqilayotgan yoki nizoli deb



topilgan oilalar bilan ishlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Joriy yilda tumandagi umumiy xotin-qizlar soni 49 976 nafarni tashkil etib, 35 ta oila notinch va nizoli, 43 ta oila ajralish yoqasida turibdi. Ushbu oilalar bilan ijtimoiy, psixologik va huquqiy yordamni o'z ichiga olgan choralar ko'rilmogda.

Shu kabi tizimli ishlar davom etarkan, xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikni yanada kamaytirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, oilalar mustahkamligini ta'minlashda muhim bosqichlarga erishilishi shubhasiz.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

XIZMATLARDA

ADASHGANLARNING AFSUSINI KO'RAMAN

– deydi Narpay tumani IIB JXX Probatsiya guruhi katta inspektori, mayor Sherzod Niyozov

Haqiqat va odillik shiori bo'lgan lavhamiz qahramoni har bir masalaga qonun doirasida yondashadi. Odamlar orasida yurib, ularni jazolovchi emas, balki yaqin ko'makchisi bo'lishni lozim ko'radi. Nazoratida turgan shaxslar bilan doimiy muloqotda bo'lib, dard-u tashvishlarini eshitadi, muammolarini o'rganib, amaliy ko'mak berish choralarini ko'radi.

– Tumanimizda bugungi kunda 511 nafar nazoratdagi shaxs ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini o'tamoqda, – deydi mayor Sherzod Niyozov. – Ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishda maxsus daftarlarga kiritish orqali ijtimoiy, huquqiy, tibbiy psixologik yordam ko'rsatildi. Kasb-hunarga ega bo'lmagan 16 nafar nazoratdagi yigit-qiz



monomarkazlarda o'qitilib, sertifikat asosida ishla-

moqda, yana 11 nafari o'z qiziqishi bo'yicha kasb-hunar o'rganyapti. Mehnat yarmakalari doirasida 151 nafar nazoratdagi shaxsning bandligi ta'minlandi.

– Sherzod Niyozov bilan hamkorlikda ishlaymiz, – deydi tuman hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Majnuda Jamanqulova. – Probatsiya nazoratidagi xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, tibbiy-psixologik yordam ko'rsatish, ularning haq-huquqla-

rini ta'minlashda bizga yaqindan ko'makchi.

Mayor Sherzod Niyozov doim yangilikka intiladi, o'z ustida ishlashdan erinmaydi. Kitob muto-laasi sevimli mashg'ulotlaridan biri. Xizmat faoliyatida har qancha ishi ko'p bo'lmasin, farzandlari tarbiyasiga, ro'zg'orning kami ko'stini to'ldirishga, yaqinlaridan hol-ahvol so'rashga vaqt topadi. Rafiqasi Shahnoza bilan ahil-inoqlikda Soliha, Shahzoda, Farangizni yaxshi orzu-umidlar bilan voyaga yetkazishyapti.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

ХОТИРА УЙҒОНСА ГЎЗАЛ

ДЎСТЛАР УНУТМАГАЙ

Фарғона вилоятининг Марғилон шаҳрида туғилиб вояга етган навқирон ўғлон Фуломжон Зокиров ҳарбий бўлинмага мурожаат қилиб, кўнгилли сифатида фронтга йўл олади.

У дастлаб 22-алоҳида ўқчи қисмда, сўнгра 3-армия гвардияси, 5-гвардия бригадасида қурол-аслаҳа командири лавозимида хизмат қилган. Жангоҳларда кўрсатган мардлиги ва жасорати туфайли бир нечта орден ва медаллар билан тақдирланган.

Иккинчи жаҳон урушидан кейин ички ишлар органлари ходими бўлиш орзуси уни Фарғона вилояти ИИБ Марғилон шаҳар бўлинмасига етаклади. Махсус комендатурада комендант ёрдамчиси лавозимида хизмат фаолиятини бошлади. Тошкент вилоятлараро милиция мактабини тугатгач, масъул лавозимларда, хусусан, 1969–1971 йилларда Қашқадарё вилояти ИИБ бошлиғи, 1971–1979 йилларда Тошкент вилояти ИИБ бошлиғи лавозимида фаолият юритди.

Генерал бўлишни орзу қилмаган аскар аскар эмас, деган гап бор ҳарбийларда. Лекин бу мақомга эришиш учун фақат орзунинг ўзи камлик қилади. Бу йўлда қанчадан қанча меҳнат қилиш, уйқусиз тунларни ва машаққатларни енгиб ўтиш керак. Лавҳамиз қаҳрамони ҳам эл-юрт тинчлиги ва осойишталиги, жамоат тартибини сақлаш, жиноятчиликнинг олдини олиш йўлидаги фидокорона хизматлари учун «генерал-майор» унвонига сазовор бўлди.

Ҳ. Зокиров раҳбар сифатида қўл остидаги ходимларга ўта талабчан, шу билан бир қаторда, бағрикенг, меҳрибон, ҳалолликни, ишчанликни яхши кўрадиган инсон бўлганлигини кўпгина шогирдлари ҳозиргача ёдга олишади. У шахсий таркибнинг оилавий шароити, муаммолари билан қизиқиб, керакли ёрдамни аямаганлиги билан ҳам обрў қозонган. Унинг шогирдлари орасидан бир нечта генераллар ҳам чиққанлиги фикримизнинг ёрқин далилидир.

Хусусан, у Тошкент вилояти ИИБ бошлиғи лавозимида фаолият юритган пайтларида генерал-полковник Зокиржон Алматовга ҳам устозлик қилган. Шунингдек, генерал-лейтенант Турсинхан Худайбергенов ҳам бу инсонни ўзига устоз деб билади.



1980 йилда Ҳ.Зокиров ҳаётдан кўз юмди. Лекин амалга оширган ишлари, ортидан қолган фарзандлари ва шогирдлари тимсолида унинг номи барҳаёт. Жумладан, 1995–1999 йилларда Тошкент вилояти ИИБ томонидан унинг хотирасига бағишлаб футбол турнирлари ташкил қилинган. 1995 йилда Фарғонадаги лицейларнинг бирига унинг номи берилган. Шунингдек бу ерда генералнинг бюсти ҳам ўрнатилган. 1997 йилда Тошкент шаҳридаги Ҳ.Зокиров яшаб ўтган уй пештоқига ёдгорлик пешлавҳасининг очилиши ҳам бўлиб ўтган.

Ҳар бир буюк эркак ортида бир аёл туради. Ҳ. Зокиров турмуш ўртоғи Қундузхон ая билан умргузаронлик қиларкан, касб тақозоси билан республиканинг турли ҳудудларига бориб ишлаган. Буни қарангки, шу тариқа улар 18 та жойга кўчиб ўтиб яшашига тўғри келган экан. Генералнинг шу даражага етишида, фарзандлар тарбиясининг рисоладагидек бўлишида Қундузхон аянинг меҳнатлари катта бўлган. У киши турмуш ўртоғим ички ишлар органи ходими дея қараб ўтирмади. Тикувчилик билан шуғулланиб, рўзғорига нафи тегди. Ҳ. Зокиров ҳам хизмат тақозоси юзасидан уйда кам бўлса-да, бўш вақтларида фарзандларининг таълим-тарбиясига ва аъло баҳоларда ўқишига алоҳида эътибор қаратарди.

Дилбандлари – Назирахон, Замирахон ва Бахтиёржонлар олий маълумотли бўлиб, жамиятда ўз ўринларини топишди. Назирахон ва Зами-

рахон ўқитувчилик касбини танлаган бўлса, Бахтиёржон Зокиров ота изидан кетиб, эл-юрт тинчлиги йўлида хизмат қилди. ИИБ таълим муассасаларида таълим бериб, келажак авлод эгаларига зиё улашди. Пенсияга чиққанидан кейин ҳам уйда ўтириб қолмади, эл-юрт равнақи йўлида ўзининг ҳиссасини қўшиб келмоқда. Унинг ўғли Ботир ҳам бобосининг касбини давом эттирди. Ботир Зокиров кўп йиллар ички ишлар органларида хизмат олиб борди. 2018 йилдан Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардия ходими бўлиб фаолият юритди ва 2022 йилда подполковник унвонига пенсияга чиқди.

– Дадамнинг панд-насиҳатларига кириб, у кишининг изидан юриб кам бўлганим йўқ, – дейди истеъфодаги подполковник Бахтиёржон Зокиров. – У киши доим «Болаларим камтар бўлинглар, камтарлик инсонни камолга етказди», дея такрорларди. Ана шу камтарликлар боис отамнинг берган тарбияси биз фарзандлар учун қонун эди. Шунинг учун ҳам генерал-майор Фуломжон Зокировнинг фарзандиман, дея мақтаниш одати йўқ эди бизда. Чунки дадам «Отаннинг обрўси, мансаби билан эмас, ўзининг меҳнатинг билан обрў олгин» дер эдилар.

Фуломжон Зокиров шоир бўлмаса-да, ижодкорларни яхши кўрарди. Фурсат топди дегунча, улар билан учрашиб, дилдан суҳбат қурарди. Хусусан, Ўзбекистон Қаҳрамони, халқ шоири Абдулла Орипов генералнинг хотирасига бағишлаб шундай шеър битган эди.

*Бир умр элу юрт
тинчлиги учун,
Фидойи бўлдингиз,
мураббий посбон.
Мангулик уйқуда
ётибсиз бу кун,
Дўстлар унутмагай ҳеч вақт,
ҳеч замон.*

Онасига, аёли ва фарзандларига бўлган чексиз меҳр-муҳаббати, касбига садоқати, шогирдларига бўлган меҳрибонлиги унинг ўзини ҳам улуғлади. Эл-юрт ичидан обрўи баланд бўлди. Ҳали-ҳануз уни яхши ном билан эслашади. Ҳаётда яшайдан мақсад шу эмасми?

**Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.**

Тошкент шаҳри.

ЧЕККА ҲУДУДЛАРДА

ЭНГ ЯХШИ ҲИМОЯ – БУ ҲУШЁРЛИК

Мамлакатимизни қўшни давлатлар билан боғловчи чегара-постларидан бири Андижон вилоятининг Хонобод шаҳрида фаолият олиб боради. Четдан кузатганда жуда тартибли, осойишта маскан. Чегарадан нариги томонга ўтсангиз, Қирғиз Республикасининг Жалолобод вилояти Сузоқ тумани бошланади. Пост Хонобод шаҳрига қарашли Навоий номли маҳалла фуқаролар йиғинида жойлашган бўлиб, ҳар куни минг нафардан ортиқ кирди-чиқди кузатилади. Чунки икки давлат фуқаролари ўртасида узилмас ва мустаҳкам қариндош-уруғчилик, қуда-андачилик ришталари мавжуд.

Чегара ҳудудда иш олиб бориш МФЙ профилактика инспектори катта лейтенант Бекзод Эргашевга юклатилган. У 3 км масофадаги чегара ҳудудига эга маҳаллада тинчлик-осойишталикни таъминлаш йўлида жонбозлик кўрсатиб келмоқда.

Бекзод Эргашев уч йилдан буён Навоий номли маҳалла осойишталиги учун масъул. Ўз вазифасига масъулият билан ёндашаётгани, кеча-кундуз сергакликни бой бермагани боис 2872 нафар фуқаро тинч-хотиржам ҳаёт кечирадиган ҳудуд «яшил» тоифада. Қолаверса, жиноятлардан холи, ҳамма ўз юмуши билан банд, тинч, сокин маҳалла. Профилактика инспекторининг ўзи ҳам оғир-босиқлиги, ҳар қандай ҳолатда вазминлиги, суҳбатдошига нисбатан ҳурмат сақлаши билан маҳаллада ҳурмат қозонган.

Хонобод чегара пости орқали амалга оширилган кирди-чиқдиларнинг барчаси Навоий номли маҳалла ҳудудига бевосита алоқадор. Четга чиқиб кетаётганларнинг ҳам, четдан кириб келаётганларнинг ҳам қадами шу ерга бир марта тегиб ўтади. Профилактика инспектори 13 нафар пост-патруль хизмати ходимлари билан биргаликда 24 соат мобайнида жамоат хавфсизлигини назорат қилади. Ахир, юртимизга кириб келаётганлар орасида қандай мақсаддаги шахслар борлигини олдиндан билиш мушкул. Энг яхши ҳимоя — бу ҳушёрлик. Шу боис чегара ҳудудининг барча қисмига кузатув камералари ўрнатилган. Қолаверса, чегара божхона ходимлари билан ҳам ҳамкорлик йўлга қўйилган бўлиб, гиёҳвандлик воситалари ҳамда турли ноқонуний маҳсулотларнинг олиб ўтилиши қатъий назорат қилиб борилади.

— Хонобод чегара постининг очилиши жуда кўп қулайликлар яратди. Авваллари аҳоли 10 км наридаги қариндоши ёки танишини кўришга бориш учун «Дўстлик» чегара постидан Қирғиз Республикасининг Ўш вилоятига ўтиб, 100–150 км йўл босиб, Жалолободга айланиб келар эди. Ҳозир эса чегарадан ўтиб, манзилга шундоқ етиб олади, — дейди профилактика инспектори.

Баъзида чегара постида тартибсизликлар ҳам бўлиб туради. Масалан, жорий йилда кичик ҳуқуқбузарликлар содир этган 9 нафар фуқарога маъмурий тартибда чора кўрилди. Лекин чегара маҳаллада ишлашнинг ўзига яраша ютуқлари ҳам бор. Катта лейтенант Бекзод Эргашев буни турли давлатлардан келган фуқаролар билан мулоқот қилиш вақтида уларга мамлакатимиз ички ишлар органлари ходимларининг салоҳияти даражасини кўрсата олиш, чет эллик фуқароларда тартиб-қоидаларимизга нисбатан ҳурмат уйғонишини таъминлашда, деб билади.

**Нигора ТЎХТАМАТОВА,
ўз мухбиримиз.**

Андижон вилояти.



BO'Z BOLAMI, BEZ BOLA

yoxud
yoshlar
tarbiyasi
xususida

Metroda vagonga yoshgina ayol bolasini yetaklab chiqdi. O'rindiqda o'tirgan yosh yigit oldida turgan ona-bolaga parvo qilmasdan, telefoniga tikilib o'tirardi. Shunda uning yonida o'tirgan kishi bolani turtib, «Bolam, hali bo'z bola ekansan, mana bu ona-bolaga joy bersang-chi», – dedi. Yigit zo'rg'a joyidan turib, ayolga joy berdi.

– Amaki, siz buni bo'z bola, deysiz, bu bo'z bola emas, g'irt bez bola ekan-ku, xo'mrayib turishini qarang, – dedi vagondagilardan biri. Yigitning jahli chiqib, gapirgan odamga yanada bezrayib qaradi.

O'rtada nizo chiqmasligi uchun «Hechqisi yo'q. Muhimi, otasi o'zimizdan ekan. Menam yoshligimda, g'o'r bola bo'lganman», – dedi unga ko'zini qisgancha. Gap qotgan kishiga nimadir demoqchi bo'layotgan bez bolaning, balki zo'r bolaning gapi og'zida qoldi. Eshitganlar «gurr» etib kulib yuborishdi. Qolganlar esa telefonga tikilgan, yoshlar o'zini uyquga solgan. Hamma o'zi bilan o'zi. Qu-loqda tiqin. Nimani eshityapti, o'zi eshitib, o'zi kulib qo'yadi, xolos. Mana shunday bugungi manzara.

Bundan sal boshqacharog'i haqida bir tanishim shunday deydi:

– Yaqinda svetofor yonidagi piyodalar o'tish joyi oldida 7–8 nafar yosh yigitlar (taxminimcha, 10 yoki 11-sinf o'quvchilari) o'zaro gurunglashib turishardi. Shu payt bir ko'zi ojiz kishi hassasini do'qillatib yo'lak oldiga keldi. Men yo'lakdan sal uzoqroqda edim. Shu yoshlardan birontasi uning yo'ldan o'tishiga yordamlasharmikan, deb biroz kutdim. Afsus, ular bu kishiga parvo ham qilishmadi. Endi o'zim o'tkazib qo'ya qolay, deb u tomonga yurmoqchi edim, bir haydovchi mashinasini chetga to'xtatib, haligi kishini yo'ldan o'tkazib qo'ydi.

Bular biz kuzatgan holatlar xolos. Ammo, afsuski, bunday xijolatimiz va noxush holatlarni ayrim yoshlarning kattalarga salom bermasdan, ular oldidan bezrayib o'tib ketishida, ko'p qavatli uylar liftlari oynalarini sindirib ketishida, avtobuslar o'rindiqlariga yozib-chizishida, maktabda ustozlarini haqoratlashida, kechalari soat 24 dan so'ng ham baqir-chaqir qilishlarida, o'zaro bo'lar-bo'lmasga janjallashib qolishlarida tez-tez uchratayotganimiz bor gap-ku. Xo'sh, nega shunday bo'lyapti?

Ochig'i, bu holatlar farzandlarimiz, yoshlarimiz tarbiyasiga e'tiborsizligimiz mevasi. Uyda bu borada gap-so'z, tarbiyaviy suhbatlar bo'lmaganining hosilasi. Farzandining o'qishi yo xulqi bo'yicha e'tiroz bildirgan o'qituvchini ota-onalarning to'g'ri tushunmasligi oqibati. Mahalla faollari va keksalarning loqaydligi emasmi?

Keling, har qaysimiz o'zimizga bir savolni beraylik. Farzandlarim bilan qachon dildan suhbatlashdim? Ularning nima bilan shug'ullanayotgani xususida qachon so'rab-surishtirdim?

Ikkilanmasdan aytish mumkinki, javoblarning aksari bir xil bo'ladi: «Ha, endi, telefondan bo'shamasa, nima qilaylik».

To'g'ri javob shu. Bugun nafaqat yoshlar, bolalar, balki kattalar keksalar, hatto qariyalar ham telefonga bog'lanib qolishdi. Shu bois Prezidentimiz ham farzandlarimiz o'zlarining 80 foiz vaqtini telefonda, internetda o'tkazmoqda, deb bejiz kuyunmayapti.

Rostini aytganda, telefon yaxshi, internetda foydali ma'lumotlar ko'p. Ammo kim ayta oladiki, mening bolam undan foydali ma'lumotlarni olyapti, deb? Taniqli

shoirimiz Xurshid Davron ijtimoiy tarmoqni «Internet bilganga xazina, bilmaganga axlatxona» deb bejiz ta'riflamadi. Bu bor gap. Shuning uchun farzandlarimiz ongida internetdan foydalanish odobini paydo qilish, madaniyatini shakllantirish, buning uchun maktablarda darslarga shunga doir maxsus mavzular kiritish vaqti keldi. Chunki insonning axborotga bo'lgan ehtiyoji ham taomga bo'lgan talabdan kam emas. Shu bois, yoshlarimizga internetdan foydalanish qoidalari o'rgatilsa, ular internetdagi xazina – ilm, ta'lim va tarbiyaga oid bilimlarni olishni o'rganadi. Chiqindi singari to'zib-to'zg'ib yotgan turli-tuman bo'lar-bo'lmas, faqat vaqtini, umrni o'g'iraydigan ma'lumotlarni chetga surib qo'yishni odat qiladi.

To'g'risi, bugungi kunda g'arbona tarbiya ta'siri tufayli jamoaviy tarbiya tobora unutilib bormoqda. Tamomila unutdik, desak ham, bo'ladi. Negaki, internetda mashhur bo'lgan ayrim «tarbiya tarqatuvchi» blogerlar yoshlarga egoizmni singdirishga urinmoqda. «Birov bilan ishing bo'lmasin, u gapiraveradi», degan da'vatlar tez-tez uchrayapti-ku.

Xo'sh, bola o'zidan boshqani bilmasa, birovni qo'ying, ota-onasi bilan ishi bo'lmasa, aka-ukalari fikrini inobatga olmasa do'stlari bilan hisoblashmasa, yon-atrofida qilmasa, mahallaga aralashmasa, u ertaga kim bo'ladi?

Axir, biz qadimdan el bilan birga yashagan, qavm-u qarindosh bilan birga turgan, birga yurgan, birga quvonib, birga yig'lagan xalqmiz. Eldan chiqdi – esdan chiqdi, degan gaplar bejiz aytilmagan.

Mutafakkirlar va ziyolilar, oriflar va olimlar «Ota-ona bolaga ta'lim va tarbiyadan ortiq hech narsa

qoldirolmaydi» deyishadi. Afsuski, biz olib berayotgan turfa xil kiyim-kechaklar, ot-ulovlar va yaratib berayotgan shart-sharoitlar ularni odobli qilib qo'ya olmaydi.

Bugun metroda, avtobusda va ko'chalarda yoshlarning tarbiyasizlik holatlari haqida bundan 15–20 yillar burun Muhammadjon Quronov singari ba'zi olimlarimiz kuyunib ogohlantirgan edi. Unda telefonlar bor-u, internet bu qadar ommaviylashmagandi.

– Baraka topgurlar, egotsentrizm degan baloning kasri-kasofatidan ehtiyot bo'laylik. U bizdan milliy o'zligimizni va tarbiyamizni tortib oladi. Mana asta-asta yemiryapti. E'tiborsiz bo'lsak, kelajimiz rasvo bo'ladi, degan edi. Bugungi har bir holat egotsentrizmning yaqqol mevasi.

Shunday ekan, bugun farzandlarimizga ta'lim tarbiya berishimiz, bolajonlarga ertaklar aytib berishimiz kerak. Bejiz faylasuflardan biri «Bolam yaxshi odam bo'lsin, desang, ertak ayt, yanayam yaxshi odam bo'lsin, desang, ko'proq ertak ayt» demagan ekan. Chunki ertakda ayni hayot aks etgan. Bir bor ekan, bir yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan... Hayotda ham aslida shunday emasmi?

Yaqinda ijtimoiy tarmoqda bir ota shunday fikrlarini yozibdi. «Telefonning quliga aylangan qavm paydo bo'ldi. Kitobsiz olamda miyasi dangasa avlod yetishyapti. Qari va kir dunyoda miyasiz avlod shakllandi. Bu hol miyasi uyg'oq avlodni qayg'uuga solmoqda».

Afsuski, holatga berilgan ta'rif to'g'ri. Shu bois bizniyam shu ota singari kelajak qayg'usi bezovta qilmoqda. Sizni-chi, aziz o'quvchi? Siz bunga nima deysiz?

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.

■ Самаркандская область

ВСЕГДА ГОТОВЫ ПОМОЧЬ

Служит Тошмирза около года. Отличное знание английского и французского языков помогло ему успешно пройти отбор в УВД. Сегодня он входит в число сотрудников, оказавших помощь наибольшему количеству туристов.

– Чаще всего к нам обращаются по поводу утери личных вещей – телефонов, паспортов, сумок, – рассказывает он. – Бывает, что гости отстают от группы и теряются в городе. Иногда требуется помощь при ухудшении здоровья или при травмах, полученных по неосторожности.

Недавно Тошмирза помог туристу из Швейцарии – Монни Паскалю – найти утерянный телефон. С помощью оперативных запросов и просмотра записей с камер видеонаблюдения удалось отследить маршрут туриста. Телефон был найден в мечети Биби-Ханум.

В другом случае гражданка Франции Бертон Гаранс потеряла паспорт и не могла вспомнить, где именно его оставила. После продолжительных поисков выяснилось, что документ остался в поезде, когда девушка ехала из Ташкента в Самарканд...

Сегодня мы расскажем об одном из лучших представителей службы по обеспечению безопасного туризма – лейтенанте Тошмирзе Равшанове. Несмотря на небольшой стаж, он уже помог десяткам иностранных гостей.



– Все сотрудники проходят специальную подготовку: изучают иностранные языки (в первую очередь английский, турецкий, русский, корейский и китайский), участвуют в тренингах по межкультурной коммуникации, правовому сопровождению иностранных граждан, а также по оказанию первой помощи. Благодаря этому туристы чувствуют себя в безопасности и знают, что всегда получат помощь, – продолжает разговор лейтенант.

Сотрудников туристической полиции можно встретить у исторических достопримечательностей, на вокзалах и в аэропортах, в древних кварталах, у рынков и гостиниц. Они легко узнаваемы по форме и всегда открыты для общения.

Кроме того, круглосуточно работает Call-центр по короткому номеру 1173. Обращения принимаются на узбекском, русском и английском языках. На связи – квалифицированные специалисты, готовые помочь в любой ситуации.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

■ Джизакская область

НЕТ ПРЕГРАД ДЛЯ САМОРАЗВИТИЯ

Документы, подтверждающие личность, должны быть оформлены безупречно, в противном случае человек может столкнуться с непредвиденными проблемами в самое неподходящее время. Это хорошо понимает паспортист группы миграции и оформления гражданства ОВД Фаришского района рядовой Ислон Норкузиев.

За минувший период года оформлено 2 656 ID-карт, 687 биометрических паспортов для выезда за границу. На постоянную регистрацию взяты 1 215 человек, на временную – 53 соотечественника и 360 граждан иностранных государств. В отношении 127 человек, совершивших правонарушения, связанные с документами, подтверждающими личность, составлены протоколы и взысканы штрафы.

Кроме выполнения своих прямых служебных обязанностей рядовой Норкузиев выкраивает время для творчества – сочиняет стихи, занимается вокалом.

Приобретение жилья и ремонт дома подвигли его научиться таким востребованным навыкам, как сварка, слесарное и столярное дело. Он самостоятельно выполняет работы по металлу, полиэтилену и дереву.

Эти качества способствовали успешному выступлению семейной команды рядового в смотре-конкурсе «Образцовая семья» среди сотрудников органов внутренних дел. На областном этапе конкурса команда заняла первое место.

Два года назад Ислон Норкузиев поступил на факультет практической психологии Сырдарьинского государственного университета. Осваивает знания, которые ему пригодятся на службе.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.



На снимке: рядовой И. Норкузиев (в центре) с сослуживцами.



MALAKALI MUTAXASSIS

Firuzjon Negov Buxoro davlat universitetining jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat fakultetini bitirgach, Vobkent tumanidagi 14-bolalar va o'smirlar sport maktabida murabbiylik qildi. O'zi ham sportning milliy kurash va sambo turi bo'yicha musobaqalarda faol qatnashib, sovrinli o'rinlarni egalladi. 2013-yil may oyidan boshlab ichki ishlar organlarida xizmat qilyapti.

Shofirkon tumani IIB profilaktika inspektori lavozimida xizmatni boshlagan Firuzjon ayni paytda Buxoro tumani IIB Tashkiliy bo'linma Navbatchilik qismi katta inspektor-navbatchisi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. U tuman IIBga kelib tushgan ariza va xabarlarini o'z vaqtida hisobga olib, voqea joyiga tergov-tezkor guruhini to'liq tartibda chiqarishni ta'minlaydi.

Tan olish kerakki, «102» raqamiga turli fe'l-atvorli kishilar har xil masala yuzasidan murojaat qiladi. Biriga talonchi hujum qilayotgan bo'ladi, boshqasiga jinoyatchi xavf solayotgani aytiladi. Yana kimdir adashib yoki soxta chaqiruv bilan murojaat qiladi. Demakki, Navbatchilik qismi xodimlaridan xushmuomalalik, tezkorlik bilan birga,



bosiqlik ham talab etiladi. Asabi tarang fuqaro quyushqondan chiqib gapirsa ham, navbatchi xodim o'ta bosiqlik bilan javob qaytarsa, maqsadga muvofiq. Lavhamiz qahramoni bularga qat'iy rioya qilganligi bois fuqarolar ishonchini oqlayapti.

Mayor F.Negov umri davomida yaxshi odamlar va ustozlar qurshovida bo'ldi. Ayniqsa, podpolkovnik Nodir Karimovdan kasbning sir-sinoati, baland-pasti, nozik jihatlarni qunt bilan o'rgandi. Uning g'amxo'rliqi va talabchanligi tufayli bugun

malakali mutaxassis degan nomga musharraf bo'ldi. Qolaversa, o'nga yaqin shogirdlar tarbiyaladi. Bugun ularning har biri malakali xodim sifatida xizmat qilyapti, osoyishtalikni asrashga munosib hissa qo'shyapti.

Shuningdek, Firuzjon Negov sportga oshno tutingan xodimlardan biri sifatida har yili huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o'rtasida o'tkazilayotgan milliy kurash va sambo bo'yicha musobaqalarda faol qatnashib kelmoqda. U oila a'zolarini ham sportga jalb qilgan. O'tgan yili viloyat ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolari ishtirokida o'tkazilgan «Otam, onam va men – sportchilar oilasi» shiori ostidagi sport musobaqasida mutlaq g'olib bo'lishgan edi.

Shu yili 16-may kuni viloyat miqyosida 35 yoshdan kattalar o'rtasida bo'lib o'tgan milliy kurash musobaqasida lavhamiz qahramoni 90 kilogramm vazn toifasida birinchi o'rinni egalladi hamda Termiz shahrida o'tkaziladigan respublika chempionatida qatnashish yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Biz unga omad tilab qolamiz.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

FARZANDLARI YUTUG'I UNING HAM YUTUG'I

Ichki ishlar organlarida faoliyat yuritishning qiyinchiligi bilan bir qatorda, sharaflari jihatlari ham bor. Serjant Burhon Turonov qariyb 27 yil bir joyda – Uchtepa tumani IIOFMBda xizmat qilib keladi. Hozirda u tuman IIOFMB Ta'minlash va xizmat ko'rsatish bo'linmalari qo'riqlash guruhi safdor xodimi.



– IIOFMB binosiga kirish-chiqish punktida xizmat olib borishning o'ziga xos mashaqqatlari bor, – deydi lavhamiz qahramoni. – Bizning muomalamizga qarab, murojaat yoki arz bilan kelgan fuqarolar butun bir tizimga baho beradi. Fuqarolar har xil kayfiyatda kelishi mumkin. Qaysisidir asabiy, kimdir jabrlangan va yana boshqasi o'zga niyatda. Shuning uchun ham biz vazminlik va xushmuomalalik bilan ularni tinglashimiz lozim. Murojaat va arizalarning tegishligi bo'yicha kerakli xodimlarga yo'naltirish ham bizning zimmanimizda.

Serjant B. Turonov turmush o'rtog'i Feruza opa bilan bir o'g'il, bir qizni voyaga yetkazishdi. Hozirda ularning ikkisi ham talaba. O'g'li Tolibjon Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida tahsil oladi. Uning maqsadi – otasi kabi el-yurt tinchligi yo'lida xizmat qilish. Qizi Sug'diyona esa Guliston davlat pedagogika institutida o'qiydi. Ikkovi ham ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari uchun ajratiladigan kvotalar

doirasida oliy ta'lim muassasasi talabasi bo'lgan.

Nafsilamrini aytganda, ota uchun bundan ortiq baxt bo'lmas kerak. O'zi erisha olmagan oliy ma'lumotga ortidan kelayotgan izdoshlari erishganida, ich-ichidan xursand bo'lgan va xodimlarning bunday ijtimoiy himoya qilinayotgani unga mamnunlik baxsh etgandi. Kelgusida bolalari oliygohni tugatib, el-u yurt koriga yaraydigan, Vatani uchun kerak bo'ladigan kadrlar bo'lib yetishganida esa uning xursandchiligi chandon ortadi.

Lavhamiz qahramoni endigina sohada faoliyat boshlaganida unga katta serjant Murod Normatov ustozlik qilgan. Yo'l-yo'riq ko'rsatib, tizimda o'z o'rnini topib olishida ko'makdosh bo'lgan. Bugun o'zining ham bir nechta shogirdlari bor. Ular turli yo'nalishlarda xizmat qilishmoqda.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

AVTOULOVLAR TOPSHIRILDI



Jizzax viloyati IIB JXX sohaviy xizmatlari hamda qo'riqlash bo'limi xodimlari ishtirokidagi navbatdagi yo'riqnoma tantanali ruhda o'tdi. Unda jinoyatlarni fosh qilish, qidiruvdagi shaxslarni qo'lga olishda faollik ko'rsatgan profilaktika inspektorlari hamda YPX xodimlarining ota-onalariga tashakkurnoma va sovg'alar topshirildi. Shuningdek, 3 nafar qo'riqlash xizmati xodimi rag'batlantirildi.

Bundan tashqari, shahar va tumanlar IIB va bo'limlari probatsiya guruhlari shaxsiy tarkibi viloyat IIB Probatsiya xizmatini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan ajratilgan kompyuter jamlanmalari hamda «Damas» avtomobilini qabul qilib oldi. Jizzax shahar qo'riqlash bo'limi xodimlariga esa 2 dona «Cobalt» rusumli avtomashina topshirildi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



■ Навоийская область

Перед началом семинара участники прошли занятия по строевой подготовке и приняли участие в строевом смотре. Ответственные лица напомнили о правилах служебной дисциплины и требованиях действующего законодательства.

В соответствии с учебным планом рассмотрены вопросы, связанные с укреплением положительного имиджа сотрудников органов внутренних дел, соблюдением норм служебной этики и правил общения с гражданами при выполнении служебных обязанностей. Подробно разъяснены положения нормативно-правовых актов, регламентирующих деятельность органов внутренних дел.

Участники прослушали лекции, посвященные вопросам совершенствования информационно-аналитической деятельности

ОТ ЛЕКЦИЙ – К ПРАКТИКЕ

В УВД Навоийской области состоялся учебный семинар с участием руководителей информационно-аналитических подразделений, организационных отделов, специалистов по работе с обращениями граждан и сотрудников канцелярий.

и планирования, усиления ведомственного контроля, а также эффективного использования электронной платформы «E-ijtimoiy-himoya».

Особое внимание было уделено практическим занятиям: отработаны навыки владения огнестрельным оружием, уточнены знания по его тактико-техническим характеристикам. Также участники ознакомились с деятельностью службы «102» и работой ситуативного центра.

В рамках семинара определены приоритетные задачи по реализации поручений министра внутренних дел, данных в



ходе его визита в Навоийскую область.

Соб. корр.



Из следственной практики

«РОДНЫЕ» ЛЮДИ

Ойгул Холикова (здесь и далее имена и фамилии изменены) надеялась, что пока есть силы, сможет помочь разведенной дочери встать на ноги. Взяв на себя заботу о двух внуках, она дала дочери возможность выехать на заработки за границу. Когда та начала стабильно присылать деньги, Ойгул стала откладывать их в надежде приобрести земельный участок.

Нужная сумма была собрана, женщина обратилась к своему племяннику Миролиму Косимову с просьбой подыскать подходящий участок в Гиждуванском районе.

– С деньгами проблем не будет, – добавила она.

Лучше бы Ойгул не упоминала о наличии крупной суммы. С этого момента племянник потерял покой, строя планы, как завладеть деньгами тети.

Однажды он прибежал к ней с радостной новостью:

– Нашел отличный участок! Но нужно внести задаток – 1000 долларов США.

Не колеблясь, женщина передала нужную сумму. Через неделю он пришел снова – с аналогичной просьбой. И вновь получил деньги. В третий раз – 300 долларов.

Как говорится, аппетит приходит во время еды. В очередной визит обнаглевший родственник заявил:

– Вы ведь знаете, что мои сыновья занимаются торговлей. Если одолжите 3000 долларов, я налажу оптовую поставку древесины. Через полгода пойдет прибыль, и вы будете ежемесячно получать по 50 долларов. Кстати, еще нужно 500 долларов на оформление документов на участок.



– Мне чужого не надо, лишь бы ты вернул мои, – наивно ответила женщина.

Прошло три года. Миролим Косимов не только не вернул деньги, но и не помог с покупкой земли. Ойгул Холикова была вынуждена обратиться в Гиждуванский РОВД.

В отношении племянника было возбуждено уголовное дело. По его итогам Миролим Косимов понес заслуженное наказание.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.



O'RINBOSARNING BIR KUNI

MUVAFFAQIYAT KALITI

Har bir sohada tartib-intizom va qonuniylikka rioya etish muvaffaqiyat kaliti sanaladi. Ayniqsa, huquqni muhofaza qilish organlarida bu nihoyatda zarur. Uchquduq tumani IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, kapitan Aziz Ergashev tomonidan amalga oshirilayotgan ish-larning tub zamirida aynan ana shu mezonlar mujassam.

Tuman IIB hovlisida o'tkaziladi-gan ertalabki saf ko'rigi chog'ida kapitan Aziz Ergashev xodimlar-ning tashqi ko'rinishi, xizmat kiyi-mi va shaxsiy hujjatlarini ko'zdan kechirdi. So'ng ularning umumiy tayyorgarligini sinovdan o'tkaz-di. Tadbir yakunida faoliyatlari davomida ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi talablariga qat'iy rioya qilishlari lozimligini ta'kidladi.

Saf ko'rigidan so'ng xodimlar kundalik faoliyati davomida foy-dalanadigan xizmat mashinalari, moddiy-texnika vositalari tekshi-ruvdan o'tkazildi. Avtomashinalar-ning tozaligi, to'liq jihozlanganligi, texnik holati kapitan Aziz Ergashev-ning diqqat markazida bo'ldi.

– Bu nafaqat xodimlarimizning faoliyat samaradorligi, balki jamoa-tchilik oldidagi obro'-e'tiboriga ham bevosita ta'sir etuvchi omil sanala-di, – deydi kapitan Aziz Ergashev.



Lavhamiz qahrmoni «xodimbay» o'rganishlar asosida shaxsiy tar-kibning sog'lig'i va ruhiy holatiga alohida e'tibor qaratadi. Mabodo biror xodim kasalligi tufayli xiz-matga kelolmagan bo'lsa, uning ahvolidan xabar oladi. Bugun ham bir guruh xodimlar bilan leytenant A'zam Xolmurodovning uyiga bo-rishdi. Undan hol so'rab, biroz suh-batlashishdi. Hamkasblari bemor xodimga dalda berishdi.

So'ng «Yo'lchilar» mahallasi-ning profilaktika katta inspektori, kapitan Asliddin Abdurahmonov-ning xonadonida bo'lishdi. Yosh oila bir yildan buyon xizmat uyida istiqomat qilishadi. Yo'qlov davo-mida uning ham ijtimoiy-moddiy ahvoli o'rganildi. Muammolari yu-zasidan suhbatlashildi.

Kun oxirida sport mashg'u-lotlarida xodimlar turli mashqlar bilan band bo'ldi. Kimdir voleybol, kimdir turnikda tortilgan bo'lsa,

mashg'ulot yakunida jamoa bo'lib futbol o'ynashdi. Sport mashg'u-lotlaridan tashqari vaqti-vaqti bilan kitobxonlik tadbirlari, «Zakovat» in-tellektual o'yinlari ham tashkil etila-di. Bunday tadbirlar jamoa a'zolari orasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlab, xizmatga bo'lgan ishtiyoq va mas'uliyat tuyg'usini yanada kuchaytiradi.

Kapitan Aziz Ergashev tizimda faoliyat ko'rstayotganiga qariyb 10 yil bo'ldi. Mazkur davr mobay-nida u turli sohaviy xizmatlarda namunali faoliyat yuritib, xizmat-doshlari orasida obro'-e'tibor ort-tirdi. Ayni paytda olis tuman oso-yishtalik posbonlarining ma'naviy kamolotini yuksaltirishga, jismoniy va kasbiy tayyorgarligini mustah-kamlashga hissa qo'shmoqda. U shaxsiy tarkib nazdida talabchan va g'amxo'r rahbar.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

KELAJAK BUNYODKORLARI

«ULAR SAFIDA BORMAN»

Ulkan orzular og'ushida boshlangan 2025-yilda jonajon yurtimiz O'zbekistonda katta ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Birgi-na IT yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilayot-gan ishlar, bo'y ko'rsatayotgan yangiliklar, oldindagi rejalarning o'zi bir olam.

Xususan, 2025-yil 15-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sun'iy intellektni tartib-ga solish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonun loyihasini ko'rib chiqdi. Ushbu qonun loyihasi sun'iy intellekt orqali yaratilgan kontentni aniqlash, shaxsiy ma'lumotlarni noqo-nuniy ishlatish uchun javobgarlikni belgilash kabi normalarni o'z ichiga oladi.

April oyida bo'lib o'tgan yangiliklardan yana biri «Yandex Uzbekiston Coding and Math Contest – 2025» musobaqasi o'tkazilib, unda 2000 dan ortiq talabalar va IT mutaxassislari ishtirok etdi. G'oliblar 65 million so'mlik mukofot jamg'arma-sidan pul mukofotlari va Yandex xizmatlariga obunalar bilan taqdirlandi.

Bundan tashqari, Yandex Toshkentda o'z ofisini ochdi va maktab o'quvchilari uchun bepul dasturlash maktablarini tashkil etmoqda. Shu-ningdek, informatika o'qituvchilari uchun Python dasturlash kurslari va o'quv materiallari taqdim etilmoqda.

Shuningdek, joriy yilning 21–22-may kunlari Toshkentda ilk bor GSMA M360 Eurasia konfe-rensiyasi bo'lib o'tdi. Beeline O'zbekiston va Ra-



qamli texnologiyalar vazirligi hamkorligida tashkil etilgan ushbu tadbirda 5G, sun'iy intellekt, raqamli inklyuziya va mintaqaviy hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Qatnashchilar orasida O'zbe-kiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov, GSMA bosh direktori Vivek Badrinatx, Azercell Telecom bosh direktori Zarina Zeynalova va Beeline Uzbekistan bosh direktori Andrey Pyatyaxin kabi nufuzli shaxslar qatnashdi.

Oldimizda esa bundan-da katta anjumanlar va muhim tadbirlar bor. Jumladan, 23–26-sen-tabr kunlari Toshkentda ICT Week Uzbekistan 2025 bo'lib o'tadi. CAEx ko'rgazma markazida o'tkaziladigan ushbu tadbirda 20000 dan ortiq

ishtirokchilar, 500 dan ortiq startaplar va 300 dan ortiq ko'rgazma ishtirokchilari qatnashadi. Tad-birda sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, raqamli hukumat va startaplar ekotizimi kabi mavzular muhokama qilinadi.

Ta'kidlash joizki, IT Park Uzbekistan startaplar va raqamli inklyuziya uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Xususan, IT Park Uzbekistan joriy yilda ham IT Park Ventures orqali startaplarni qo'llab-quvvatlashni davom ettiradi. Shuningdek, «Zero Risk» va «Local2Global» dasturlari orqali xalqaro kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari va boshqa yangiliklar taqdim etiladi.

Garchand, jismoniy imkoniyatlarim cheklan-gan bo'lsa-da, kelajak bunyodkorlari bo'lgan muhandislar safida borligimdan ichki bir g'ururni his qilgan holda, bilimlarimni yanada yuksaltirish uchun o'zim ta'lim olayotgan oliy dargoh sari o'tlanarkanman, professor Muhammad Bilol Qu-reshi berayotgan bilimlarini puxta egallab, ona Vatanimiz – Yangi O'zbekistonga munosib farzand bo'lish, yurtim ravnaqiga baholi qudrat hissa qo'-shish istagi jo'sh urib turgan yuragimdan quyidagi misralar o'tilib chiqdi:

**Shukrki, men ham ular safida borman,
Ular kabi ezgu maqsadga yorman.
Buyuk orzu – Yangi O'zbekistonni
Siz bilan qurishga doim tayyorman.**

Mirkomil MIRZOHIDOV,
Markaziy Osiyo universitetining
IT yo'nalishi bo'yicha talabasi.

KINOLOGIYA

AQLLI JONIVORLAR KO'MAGIDA

Xorazm viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi-ning tajribali xodimlari o'zlariga birlashtirilgan xizmat itlari yordamida jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etishmoqda.

Bo'linmada 41 ta zotdor xizmat itlari mavjud bo'lib, ular giyohvandlik, antiterror, iz qidiruv, qorovul va qo'riqlash, o'qotar va portlovchi moddalarni izlab topish yo'nalishlari bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan. Joriy yilning o'tgan davrida bo'linma kinologlari xizmat itlari bilan 148 marotaba hodisa joyiga chiqib, 5 ta o'g'rilik, 15 ta giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatni «issiq izida» fosh etishdi. Tezkor tadbirlar davomida qonunbuzarlardan 950 grammdan ziyod turli xildagi giyohvandlik vositalari ash-yoviy dalil sifatida olindi.

Joriy yilning 6 fevral kuni Urganch shahar hududida o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro U.M. «xaridor»ga 0,17 gramm gashish giyohvandlik vositasini sotayotgan vaqtida ushlandi.

Tezkor tadbirda ishtirok etgan 1-sonli kinologiya guruhi kichik inspektor-kinologi, safdor Zokir Qalandarov o'zining «Shadi» laqabli xizmat iti yordamida U.M.ga tegishli bo'lgan «Gentra» rusumli avtomashina salonida 1 bo'lak,

haydovchi nimchasi-ning chap cho'ntagida esa 5 bo'lak, jami sof og'irligi 4,46 gramm giyohvandlik vositasi borligini aniqladi.

Kinologiya xizmatini rivojlantirishda xizmat itlari pitomnigining o'ziga xos o'rni bor. Bu yerda xodimlarning bilim va kasbiy mahoratini oshirish, ilg'or tajribalarni, ish uslublarini amaliyotga joriy etish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

– Kinologiya bo'linmasi binosi bundan 25 yil muqaddam hashar yo'li bilan bunyod etilgan, – deydi bo'linma boshlig'i, podpolkovnik Rasul Polvonov. – Joriy yil boshida ma'muriy va yordamchi xo'jalik binolari hamda mashg'ulot maydonchalari zamon talablariga mos holda ta'mirlandi. Ma'muriy binodagi barcha xonalar mebel jihozlari, kompyuter texnikalari, aloqa vositalari bilan ta'mirlandi. Qo'shimcha binolarda xizmat itlarini saqlash, parvarishlash, davolash hamda maxsus kurslar bo'yicha o'qitish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shuningdek, aholiga



tegishli bo'lgan itlarni pullik xizmat asosida parvarishlash va maxsus kurslar bo'yicha o'qitish uchun ham alohida bino barpo etildi.

Bo'linmada mohir kinologlar anchagina. Instruktor-kinologlar – safdorlar Davlatyor Xudoyberganov, Nazarbek Xudayorov, kichik inspektor-kinologlar – safdorlar Umidbek Qo'ziyev, Rahmatillo Shomurotov, Shavkat Bekturdi-

yev, Jur'at Ramatov, veterinariya feldsheri, kichik serjant G'ayrat Rajabov singari kasb fidoyilarini faxr bilan tilga olish mumkin.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Suratda: kichik inspektor-kinolog, safdor Rahmatillo Shomurotov xizmat iti bilan.

QILMISH – QIDIRMISH

QIMMATGA TUSHGAN ISHONCH

2024-yilning may oyi. Hali yomg'ir isi tarqalmagan, navbatdagi g'alla hosilidan umid bog'langan davr edi. Sariosiyo tumanida joylashgan «A'zam Hamdam chorvalari» fermer xo'jaligiga qarashli yaylov yerlarida qo'shni fermer xo'jaliklarining cho'ponlari qo'y boqishar, endigina unib chiqqan g'allazorni payhon qilardi. Bu holatdan xo'jalik ish boshqaruvchisi Xudoyberdi Omonov (ism-shariflar o'zgartirildi) qattiq jahllanib, qonuniy chora ko'rish haqida bosh qotira boshladi.

O'sha davrda u Termiz shahrida joylashgan ma'muriy sud binosida fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashida ishlaydigan Aziz Babatov bilan tanishib qoldi. Aziz darrov vaziyatni tushundi va Xudoyberdiga o'zini yordam bera oladigan odam sifatida tanishtirdi.

– Men sizga yordam beraman, – dedi Babatov qattiq ishonch bilan. – Bu zarar bo'yicha to'lovni rasmiy ravishda undirib berishim mumkin. Prokuraturada ham tanishlarim bor. Faqat avval payhon qilingan yerni borib ko'rishim kerak.

Chorasizligiga chora topgan Xudoyberdi ham o'zida yo'q xursand bo'lib, agar zarar pulini olishga yordam bersa, uni quruq qo'ymasligini aytdi.

Ular xayrlashishdi. Oradan vaqt o'tar, Xudoyberdining esa muammosi kattalashib borardi. U Azizga qo'ng'iroq

qila boshladi. Boshida biroz kalovlangan Aziz axiyr gapning indallosini aytdi-qo'ydi.

U bu ishni hal qilish uchun xarajati borligini, buning uchun 500 AQSH dollari miqdorida pul kerakligini aytdi. X.Omonov tezda pulni taxt qilib, yo'nalishli taksi haydovchisi orqali 500 AQSH dollari va 1 million 212 ming so'm pulni «jo'natma» qilib yubordi. Aziz taksi haydovchisidan pullarni olib, cho'ntagiga urdi.

Oradan vaqt o'tib, Azizdan darak bo'lmadi. Bundan xavotirlangan Xudoyberdi unga qo'ng'iroq qila boshladi. Ammo qani ulardan javob ololsa... Ishi hal bo'lishi uchun mo'maygina pul berganiga qaramay, na bir ish amalga oshdi, na o'sha zarar undirildi.

Aziz vaqtni cho'zavergach, Xudoyberdining toqati toq bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan u firibgarining qarmog'iga ilinga-

nini tushundi va darhol huquq-tartibot idoralariga murojaat qildi.

Pullarini qaytarib berishini so'raganda, Aziz uni shaxsiy manfaati yo'lida ishlatib yuborganini, keyinroq berishini aytdi. U Xudoyberdidan olgan pullardan 300 ming so'mini qaytarayotganda, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan o'tkazilgan tadbirda qo'lga olindi.

Ishonch – insonlar o'rtasidagi eng nozik munosabatdir. Uni suiiste'mol qilganlar nafaqat qonun, balki insoniyat oldida ham javobgar bo'ladi. Jamiyatda firibgarlikka nisbatan murosasiz munosabat va adolatli tizimgina bunday holatlarning oldini olishi mumkin.

Feruz ALIBOYEV,
mayor.
Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

IKKINCHI ISTE'DOD



Leytenant Obidjon Olimjonov Yashnobod tumani IIOFMB «Uysozlar» mahalla fuqarolar yig'ining xizmat ko'rsatuvchi 287-ichki ishlar organlari tayanch punkti-da profilaktika inspektori lavozimida faoliyat yuritadi.

Ustozi – profilaktika katta inspektori, kapitan Izzatullo Abdulatipov bilan hamkorlikda, 6500 nafarga yaqin aholining tinchlik-osoyishtaligini ta'minlamoqda.

Uning yoshlikdan she'rlar mashq qilishida va kitobga mehr qo'yishida ona tili

va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lgan buvisining ta'siri katta. Jajji bolajon borliqni anglab yetish uchun bergan har bir savoliga undan javob olardi. Shuningdek, nutqi ravon va ta'sirli so'zlaydigan onasi Sevara opa ham bolakayning qobiliyatini o'z vaqtida payqab, uni rivojlantirish uchun astoydil harakat qildi. Niyatlar amalga oshib, o'g'li osoyishtalik posboni bo'lish barobarida, ijodga ham oshno tutindi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

IJODGA OSHNO QALB

ONA TILIM

*Sen mening hamrohim go'dak yoshimdan,
Onam allasidan yayratgan dilim,
Qancha ko'rguliklar o'di boshingdan,
Gulla, yashna mangu, onajon tilim.*

*Sensan Navoiyni aylagan biyron,
Lutfiyni bir bayti aylagan hayron,
Sen yangragan paytda bulbullar giryon,
Gulla, yashna mangu, onajon tilim.*

*Bobur g'azallarini aylagan go'zal,
Sening har harfingdir misli qand, asal,
Sensan ham navqiron, ham qadim, azal,
Gulla, yashna mangu, onajon tilim.*

*Sening buyukliging fillarda doston,
Har kuni ochasan yangi bir bo'ston,
Sening madhing ulug', har qachon, har on,
Gulla, yashna mangu, onajon tilim.*

Obidjon OLIMJONOV,
leytenant.

PROFILAKTIKA XIZMATI

«ARMECHAN» – JINOYATDAN XOLI HUDUD

G'ijduvon tumani IIB 2-son IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, mayor Feruz Qo'ldoshevni nafaqat o'zi xizmat ko'rsatadigan mahalla ahli, balki qo'shni mahalla fuqarolari ham taniydi.



Navoiy davlat pedagogika institutini tugatgan Feruzjon ikki yil tuman pedagogika kollejida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida ishlab, 2014-yil noyabrdan ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini boshladi.

Dastlab tumandagi «Zarafshon» mahalla fuqarolar yig'ini-da profilaktika inspektori etib tayinlangan lavhamiz qahramoni oilaviy nizolarni, qo'ni qo'shnilar kelishmovchiliklarini shu yerning o'zida hal etadigan bo'ldi. Natijada, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlari qayd etilmadi. Shu bois

rahbariyat bu g'ayratli yigitni kriminogen vaziyat ancha og'ir bo'lgan «Armechan» mahalla fuqarolar yig'ini hududiga profilaktika inspektori etib tayinladi.

Huquqbuzarliklar tez-tez sodir etilayotgan, spirtli ichimlik ichib, janjal qiladigan shaxslar ko'p uchraydigan bu hudud profilaktika inspektoridan nihoyatda jiddiy ish olib borishni talab etardi. F.Qo'ldoshev ishtiyoq bilan ishga kirishdi. Faoliyatini spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslarni majburiy davolash muassasalariga joylashtirishdan boshladi. Ilgari sudlangan, jinoyat sodir

etishga moyil shaxslar bilan tez-tez suhbatlashib, profilaktik tadbirlar o'tkazdi. Yuz bergan jinoyatlarni tezkorlik bilan fosh etishga harakat qildi. Bunday sa'y-harakatlar o'z samarasini berib, jinoyatlar va huquqbuzarlik holatlari yildan-yilga kamaydi.

«Armechan» mahalla fuqarolar yig'inida yashovchilarning ak-sariyati tadbirkorlik va dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Ishsizlar ham yo'q emas. Shuning uchun ularni band qilishning boshqa yo'llarini topish maqsadida profilaktika katta inspektori hokim yordamchisi va mahalla faollari bilan birgalikda astoydil harakat qilishmoqda.

Mayor F. Qo'ldoshev notinch oilalar va profilaktik hisobda turuvchi shaxslarni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Xususan, 34 nafar profilaktik hisobda turuvchi shaxs bilan doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib boryapti. Mahalla yettiligining birgalikdagi tadbirlari samarasi o'laroq, joriy yilning o'tgan davrida hududda umuman jinoyat sodir etilmadi. Huquqbuzarliklar soni keskin kamaydi. Mahalla esa «yashil» toifada.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

«QORADORI – 2025»

«ZAHRI QOTIL»GA QARSHI BIRGALIKDA KURASHAMIZ!

Giyohvandlik insonga zarar keltiradigan eng xavfli illatlardan biridir. Bu illat domiga ilingan shaxslar bora-bora sog'ligini, aql-u xushini, jamiyatdagi obro'-hurmatini yo'qotadi, oilasidan ham ajraladi.

Ming afsuski, oramizda ushbu illat domiga ilingan, giyohvandlik moddalarini saqlash, sotish va iste'mol qilishga ruju qo'ygan, o'z tomorqasida bunday o'simliklarni parvarishlayotgan kimsalar ham yo'q emas.



Ana shunday illatga qarshi keskin kurashish maqsadida mamlakatimizda 2025-yilning 1-mayidan 30-iyuniga qadar «Qoradori-2025» keng qamrovli tadbiri o'tkazilmoqda.

Farg'ona viloyatida mazkur tadbirning birinchi bosqichi samarali tashkil etilib, viloyat hududlarida vertolyotda nazorat tadbirlarini amalga oshirildi. Natijada 28 ta noqonuniy holat aniqlandi, 1092 dona giyohvandlik o'simligi, 435 gram giyohvandlik moddalari muomaladan olindi.

Jumladan, tadbir davomida Qo'qon shahrida o'z tomorqasida ko'knor yetishtirayotgan shaxs fosh etildi. «Urganjibog'» mahallasida yashovchi 1970-yilda tug'ilgan fuqaro A.S.ning xonadoni xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganda, tomorqasida 80 tup ko'knor o'simligini parvarishlab kelayotganligi aniqlanib, ashyoviy dalil tariqasida olindi.

Uchko'priq tumanidagi «Farovon» mahallasida yashovchi I.M ismli shaxs esa 27 tup ko'knor va 4 tup nasha o'simligini pinxona tarzda parvarishlayotgani ma'lum bo'ldi.

Har ikki holat yuzasidan Qo'qon shahar IIB tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

ЖАЗИРАМА ИССИҚНИНГ САЛБИЙ ОҚИБАТЛАРИ

Қуёшнинг қайноқ тафти таъсирида танадаги қон янада жадал ҳаракатланиб, юрак уриши тезлашади, ҳаво етишмайди, бу эса баъзи ҳолларда гипертония, инфаркт ва инсультга сабаб бўлади. Офтоб уриши чоғида эса кўнгил айнаши, бош айланиши, ҳушдан кетиш, кучли ҳолсизлик ҳолатлари кузатилиши мумкин. ИИВ Марказий поликлиникаси шохобча умумий амалиёт шифокори Омина Ибрагимованинг тавсиялари шу хусусида.

Кўпинча ҳаво ҳарорати ўта юқори бўлганда қон томирлари кенгайиб, артериал босим тушиши оқибатида бош мия гипоксияси (кислород танқислиги) кузатилади. Бу эса қон айланиши бузилиши, мия фаолияти ёмонлашиши, хотиранинг сустлашиши ва уйқусизликка олиб келади.

Иссиқ об-ҳаво шароитида инсон кучли терлайди. Тер билан бирга организмдан кўпгина электролитлар (магний, калий, натрий ва бошқалар) чиқиб кетади ва бу организмда сув-электролит бузилишига сабаб бўлиб, ҳолсизлик, тез чарчаш ҳолатлари билан бирга келади.

Меъёрдан ортиқ иссиқ ҳарорат иммун тизимига ҳам салбий таъсир кўрсатади. Жазирама иссиқ ҳатто танада шиш ва ўсимталар юзага келиши ёки ривожланишига сабаб бўлиши мумкин. Қуёш нурининг ортиқча дозаси инсон терисининг тез қаришига хизмат қилади. Бунда тери ости липидларининг оксидланиш жараёни кескин кучаяди ва ёшлик витамини ҳисобланмиш Е миқдори тушиб кетади. Оқибатда тери ўз қалинлиги ва текислигини йўқотади. Баъзан ультрабинафша нурлар таъсири тери куйиши ёки тери

саратони юзага келишига хизмат қилади.

Ёз мавсуми учун муҳим тавсиялар:

* Иссиқ кунларда, айниқса, соат 12:00 дан 16:00 гача қуёш тиғи остида юрманг. Кўчага чиққанда офтобдан ҳимоя қилувчи бош кийим ва кўзойнак тақишни унутманг. Имкон қадар ҳаво ўтказиб турадиган енгил ва қулай кийим ҳамда пойабзал кийишга аҳамият қаратинг.

* Организм сувсизланишига йўл қўймаслик учун кун давомида етарли миқдорда суюқлик ичинг. Ширин, газли, энергетик ва алкоголь ичимликлар, қадокланган шарбатлар ва қаҳва бундан мустасно. Чанқокни қондириш учун минерал сув, уй шароитида тайёрланган компот ва дамламалар, тоза сиқилган мева ва сабзавот шарбатлари истеъмол қилиш тавсия этилади.

* Шўр ва ёғли таомлар истеъмолдан чекланинг. Уларнинг ўрнига мева ва сабзавотлар, кўкатлар, сутли маҳсулотлар, ёғсиз гўшт ёки балиқ ейиш мақсадга мувофиқдир. Маълумки, иссиқ об-ҳавода баъзи озиқ-овқат маҳсулотлари жуда тез айнийди. Шу сабабли доим тоза ва озода жойларда таомланиш,

тез бузиладиган маҳсулотлардан сақланиш зарур.

* Совун ва антисептик воситалар ёрдамида тез-тез қўлларни тозалашни унутманг. Айниқса, овқатланишдан олдин ва кейин ҳамда ташқаридан уйга келганда бу одатни қанда қилмаслик лозим.

* Турли физиотерапевтик муолажаларни, қўшимча витамин дозиларни фақат шифокор тавсияси билан қабул қилинг. Энг яхшиси, организмни витамин ва фойдали моддалар билан бойитишда табиий маҳсулотлардан фойдаланинг.

* Иссиқ об-ҳаво шароитида терида бактериялар кўпайиши мумкин. Шу боис тез-тез илиқ душ қабул қилиш саломатлик учун фойдали. У инсонни тетиклантириб, танадаги губорларни кетказди. Бироқ сауна ёки җаммомда чўмилишдан воз кечинг, бу салбий оқибатларга олиб келиши мумкин.

* Ёз фаслида кўча-кўйда сотиладиган айрон, гўжа, ширин сиропли ичимликлар, ўрик шарбати ва шу кабиларни истеъмол қилишда эҳтиёткор бўлинг. Чунки бундай маҳсулотлар кўп ҳолларда тозалikka ва санитария қоидаларига амал қилинмаган ҳолда тайёрланади ва сақланади. Шу боис уларни имкон қадар ўзимиз уй шароитида, тоза муҳитда тайёрлаб истеъмол қилишимиз зарур.

АЙРОН
ИШТАХАНИ ОЧАДИ

Ёзнинг иссиқ кунларида қатик ёки сузмадан сув, зираворлар, ошкўклар ва муз қўшиб тайёрланадиган айрон ажойиб чанқовбосди ичимлик ҳисобланади. У иштахани очиб, кишига тетиклик бағишлайди ва организм йўқотган суюқлик, минерал ва витаминлар ўрнини қоплайди. Шунингдек, ўпкага кислород оқимини таъминлаб, шу орқали нафас олиш тизими фаолиятини яхшилайди.

Ушбу яхна ичимлик овқат ҳазм қилиш тизими, ичаклар микрофлорасини яхшилаб, иммунитетни кучайтиришга хизмат қилади ва юрак-қон томир тизими фаолиятини яхшилайди. Айронни хуш кўрувчи инсонларда дисбактериоз камдан-кам учрайди, чунки уни мунтазам истеъмол қилиш ичаклардаги микроорганизмлар фаолиятини нормаллаштиради. Бу дармондориларга бой ичимлик қондаги холестерин даражасини пасайтиради.

Қатикнинг кув (гуппи)да мой ажратиб олингандан сўнг қолган суюқ қисми ҳам айрон деб юритилиб, Ўзбекистоннинг айрим жойларида чалоб ҳам айрон деб аталади. Айроннинг суви махсус тайёрланган халтадан ўтказилиб, сузма (чакки) тайёрланади, сузмадан эса кальцийга бой ва инсон организми учун жуда фойдали бўлган қурут қилинади.

НОННИНГ ФОЙДАЛИ ТУРЛАРИ

Нон рационимиздаги энг кўп маҳсулотлардан бири ҳисобланади. Лекин озиш йўлида бўлганларга мутахассислар кўпинча унли маҳсулотлардан воз кечишни тавсия қилишади. Ҳақиқатан ҳам, кун давомида юқори калорияли нон турларини меъёридан ортиқ ейиш вазн ташлаш жараёнини қийинлаштиради. ИИВ Марказий поликлиникаси шифокор-эндокринологи Ирода Шергазиева тавсиялари дўкон расталарида ҳам истеъмол қилиш, ҳам озиш мумкин бўлган нон турлари ҳақида.

Жавдар нон бу борада энг яхши танловдир. Унинг таркибидаги углеводлар секин ўзлаштирилиб, қонда қанд миқдорини меъёрда сақлашга ҳисса қўшади. Бир қатор витамин, микроэлемент ва антиоксидантлар эвазига жавдар нон сифатли, балансланган овқатланиш ва саломатликни мустаҳкамлашда тенгсиз ҳисобланади. Бундай нон узоқ вақт тўқлик ҳиссини беради ва иштахани меъёрлашга ёрдам беради.

Хамиртушсиз нон осон ҳазм бўлади. У турли бошоқлар, уруғ ва ёнғоқлар солиб тайёрланади. Бундай нон таркибида қанд миқдори кам, лекин клетчатка, витамин ва микроэлементлар кўп миқдорда бўлади. Нон нисбатан тўйимли бўлгани боис организмни тез тўйинтиради, ундаги фойдали бак-

териялар эса ичаклар саломатлигига ижобий таъсир кўрсатади.

Бутун донли нон қонда қанд миқдорини меъёрда сақлашга ёрдам беради, бу эса иштахани назорат қилиш ва вазн ташлашга хизмат қилади. Оксил ва минералларга бой бўлган бундай нон бутун донлардан ёки уларнинг янчилган ҳолдаги унидан тайёрланиб, пишириш жараёнида барча озуқавий моддалар сақланиб қолади. Шунингдек, у тери, соч ва тирноқлар ҳолатига ижобий таъсир кўрсатади, иш қобилиятини оширади, овқат ҳазмини ва барча озуқавий моддаларнинг ўзлаштирилишини яхшилайди.

Зоғора нон учун маккажўхори уни ишлатилади. Бу турдаги нон тўйимли, фойдали ва жуда ма-зали. Унинг таркибида В гуруҳи



витаминлари, магний, темир, С витамини ва фосфор бор. Шунингдек, бундай нон овқат ҳазм қилиш ва юрак-қон томир тизими учун ниҳоятда фойдали.

Буғдой кепегидан ёпилган нон ҳам витамин ва минералларга бой. Унинг истеъмоли овқат ҳазм қилиш жараёнини яхшилайди, холестерин миқдорини камайтиради, танадаги оксил, ёғ, сув-туз ва энергетик алмашинуви яхшилаб, ошқозон, мушак ва асаб тизимлари фаолиятини тартибга солади. Бундай нон оз миқдорда ейилганда ҳам, тўқлик ҳиссини бергани боис семиришнинг олдини олади ва тана вазнини меъёрлаштиради.

Сули ёрмасидан тайёрланган нон озуқавий моддаларга бой бўлиб, енгил ҳазм бўлади. У иштахани назорат қилишга ёрдам беради,

тонус (организмнинг ҳаётий фаоллик даражаси)ни узоқ вақт сақлаб қолади ва қонда қанд миқдорини меъёрлашга хизмат қилади. Кўп миқдорда озуқавий толаларга эга бўлган бундай нон ичаклар фаолиятини тартибга солиб, углеводлар ўзлаштирилишини секинлаштиради, метаболизмни яхшилайди.

Қора нон жавдари ёки жавдари-буғдой унидан тайёрланади. Унинг таркибига махсус хамиртуруш қўшилгани боис ичи ғоваксимон бўлиб пишади. Ушбу маҳсулот юрак-қон томир тизими фаолияти учун ҳам фойдали бўлиб, ичакларни тозалайди, қон айланишини яхшилайди, холестерин миқдорини камайтиради.

Саҳифани
Гулчехра АЗИМОВА
тайёрлади.



ПРАЗДНИК МИРА И ДРУЖБЫ



Сабантуй – ежегодный народный праздник окончания весенних полевых работ у татар и башкир. Древняя мудрость гласит: чем лучше его отмечаешь, тем больше будет урожая.

25 мая в Ташкенте в парке «Central Park» прошел национальный татаро-башкирский праздник «Сабантуй» – праздник дружбы, труда, искусства и спорта. Этот праздник вызвал большой интерес жителей и гостей столицы. Парк преобразился в одну большую площадку, на которой звучали веселые песни, проводились спортивные состязания, игры, выставка народ-

Зрители могли наслаждаться не только песнями и танцами, но и стать непосредственными участниками 12 игр-состязаний. Это традиционный кураш, стрельба из лука, армрестлинг, разбивание кувшина с завязанными глазами и многое другое.

Состоялся концерт с участием ведущих артистов Узбекистана, Башкортостана, Татарстана и художественных коллек-

держанием, но главное всегда неизменно – это праздник труда и дружбы народов.

– Сабантуй ежегодно проходит в одном из прекрасных парков столицы. Этот праздник стал не только татаро-башкирским, он стал интернациональным, – отметил председатель татарского культурно-просветительского центра города Ташкента Ришат Набиуллин. – Руководство страны создало все условия для того, чтобы мы сохранили и развивали свои традиции. Для обеспечения порядка во время проведения праздника службу несут сотрудники ОВД, Национальной гвардии. Задействованы представители МЧС, медицинские работники. Ничто не должно омрачить прекрасное настроение. В части осуществления функций надзорной деятельности были прове-



но-прикладного искусства, демонстрация национальной кухни и многое другое.

На главной сцене парка состоялось торжественное открытие праздника, на котором приняли участие представители министерств и ведомств, посольства Российской Федерации в Узбекистане, высокие гости из Татарстана и Башкортостана, Центральноазиатских республик, руководители татарского и башкирского национальных культурных центров. Выступившие выразили благодарность руководству страны за условия, созданные представителям каждой нации, которые свободно могут проводить свои национальные обычаи и праздники. Отмечалось, что Сабантуй является желанным и любимым праздником граждан Узбекистана разных национальностей.



тивов «Эдельвейс», «Изге Нур», «Дуслык», «Хандугастар», «Мирас», «Агидель», «Шатлык» и др.

Известный во всем мире добрый дух Сабантуя привлекает людей разных национальностей, сближая их. Это яркое проявление преемственности традиций и уважения к каждой культуре.

Сабантуй внесен в список шедевров культурного наследия ЮНЕСКО. Он обогащается новым со-

дены профилактические осмотры по соблюдению требований общественной и пожарной безопасности всех мест праздничных мероприятий, проведены инструктажи. От имени организаторов выражаю им признательность. Всем хочу пожелать крепкого здоровья, чтобы было ясное небо, крепла межнациональная дружба.

Гайратулла ШУКУРОВ.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(2 – 8 июнь)



Қўй. Ушбу ҳафтада амалга оширилган сай-ҳаракатлар, айниқса, ишбилармон одамлар учун омадли кечади. Ҳар қандай вазиятда ҳам тортишувлардан узоқ туриб, ҳеч ким билан низога бормасликка ҳаракат қилинг. Ён-атрофдагилар билан имкон қадар хушмуомала бўлинг.



Бузоқ. Сиз учун мазкур ҳафта фаол ҳаракатлар даври ҳисобланиб, кўпгина муваффақиятларга эришиш учун яхши имкониятдир. Айни шу дамда ҳатто энг мураккаб вазифаларни ҳам ҳеч иккиланмай амалга ошириш тавсия этилади. Ҳафта давомида ҳар қандай ташаббуснинг ижобий натижа бериши эҳтимоли юқори.



Эгизаклар. Ҳафта боши омадли келади. Бунда сиздан фаол ва серғайрат бўлиш талаб этилади. Ушбу даврда меъеридан ортиқ ташаббус билдириш тавсия этилмайди, негаки ҳамма ишлар шундоқ ҳам ўз йўлида кетади. Асосийси, ҳар нарсасига неқбинлик руҳи билан қараб, ҳаётдан завқ олишни унутманг.



Қисқичбақа. Бу даврда молиявий аҳволни яхшилаб олиш учун қўшимча иш қилиш талаб этилади. Изланиш ҳаракатларини ҳафтанинг ўрталарида амалга оширган маъқул. Чоршанба куни омад кулиб боқиши мумкин. Дам олиш кунлари яхши ҳордиқ чиқаринг, тоза ҳавода кўпроқ сайр қилинг.



Арслон. Ушбу ҳафта ҳар бир ишни муроса билан бажаришга тўғри келади. Агар дўст ва яқин кишилар билан муносабатларни қадрласангиз, ярашиш учун биринчи бўлиб қўл узатишдан чўчиманг. Ҳафтанинг иккинчи ярмида руҳиятингиз яхшиланиб, кайфиятингиз кўтарилади. Режадаги барча ишлар осон ва енгил ҳал бўлади.



Паризод. Ўзаро тушунмовчилик ва муросага келмаслик яқинларингиз билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатади. Ким биландир зиддиятга бориш истагингиздан воз кечинг. Вазиятдан чиқиш учун кўпроқ сайр қилинг, яшаб турган жойингиздан анча нарига сафар ташкиллаштиринг.



Тарози. Анчадан бери қийнаб келаётган оилавий муаммоларнинг ечимини топиш имконияти туғилади. Уни асло қўлдан бой берманг. Ҳафтанинг иккинчи ярмида келгусида ҳаётингизни енгиллатишга ёрдам берадиган янги келишувларга эришингиз мумкин.



Чаён. Душанба ва сешанба кунлари иш фаолияти самарали кечади. Ҳафтанинг иккинчи ярмида даромадларингизни оширишга хизмат қилувчи таклиф олишингиз кутилмоқда. Бироқ шахсий ҳаётда баъзи қийинчиликлар юзага келиши мумкин.



Ўқотар. Қийин ва мушкул ишларга фақат суянчингиз бўлсагина киришинг. Айрим вазифалардан воз кечишга тўғри келади. Бу даврда берилган қарз қўлингизга анча муддат ўтиб қайтади. Бу ҳафтада режалаштирилган барча юмушлар кўнгилдагидек амалга ошади.



Тоғ эчкиси. Илк даврда ўз ечимини кутаётган уй юмушлари гирдобига «ғарқ» бўласиз. Яқинларингиз билан муносабатда тушунмовчиликлар юзага келиши мумкин. Ҳафта ўрталарига бориб ишда ҳам, оилада ҳам ҳаммаси изига тушиб кетади. Айниқса, иш қидираётганларга омад кулиб боқади.



Қовға. Душанба ва сешанба кунлари янги-янги гоғлар туғилади: асосийси, хатарли ва қалтис ишларга аралашиб қолманг, бунинг учун доно ва оқил кишиларнинг маслаҳати билан иш юритинг. Иш жойингизда ҳаммаси ўз ўрнида давом этади.



Балиқ. Бу даврда сизни бир қанча ижобий ўзгаришлар кутмоқда. Атрофингиздаги инсонларга эътиборли ва меҳрли бўлишингиз кифоя. Ҳафта бошида ташвиш ва юмушлар кўпаяди, лекин ҳаммасини осонликча ҳал қилишга эришасиз. Эски ва унутилган қарзингиз қайтарилиши, иш жойида лавозим кўтарилиши эҳтимоли бор.

TA'LIM, TARBIYA VA BILIM – DUNYONI O'ZGARTIRA OLADIGAN KUCH

IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internati ta'lim sifati yaxshilash, zamon va bugungi kun talablariga javob bera oladigan o'quvchi yoshlarni tarbiyalash yo'lida ulkan mas'uliyatni chuqur his qilgan holda faoliyat olib bormoqda.



Maktab-internatiga har yili 100 nafar o'quvchi qabul qilinadi. Shundan 50 foizini ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari tashkil etadi.

Hozirda maktab-internatida 320 nafar o'quvchilar tahsil olmoqda. Joriy yilda 49 nafar bitiruvchi maktabni tamomladi, shundan 9 nafari a'lo darajali shahodatnomaga ega bo'ldi.



FARID – MAMLAKAT CEMPIONI

Qarshi shahrida o'zbek jang san'ati bo'yicha yoshlar hamda kattalar o'rtasida o'tkazilgan mamlakat chempionatida 16–18 yosh toifasida IIV Qashqadaryo akademik litseyi o'quvchilari ham ishtirok etishdi.

Litseyning 1-bosqich o'quvchisi Farid To'raqulov 67 kg vazn toifasida 1-o'rinni qo'lga kiritib, Sport vazirligining I darajali diplomi va medali bilan taqdirlandi.

O'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinbosarlari

podpolkovnik Azizjon **FAYZIYEV**
mayor Aziza **BOHODIROVA**

Navbatchilar

Sarvar **SOBIROV**
Radik **TUMPAROV**

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir **BOLTAYEV**
Ilhom **JUMANOV**
Akbar **BOLTAYEV**

Fotomuxbirlar

Abu **KENJAYEV**
Ikrom **HASANOV**

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari

bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r

23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1428.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3.

Hajmi – 6 bosma taboq.

45502 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206

Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.